2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 210 (999), 2023-yil 11-oktabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

TINCHLIK VA BAG‘RIKENGLIKKA CHORLOV

Bu yangi tashabbuslar umumbashariy muammolarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir

Yurtimizda ilm-ma’rifatga e’tibor, ajdodlar merosini o‘rganish, targ‘ib etish va islom dinining insonparvarlik, bag‘rikenglik, ezgulikka qaratilgan g‘oyalarini jamiyat ma’naviy hayotiga yo‘naltirish muhim ishlardan bo‘lmoqda. Ayniqsa, “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” ezgu g‘oyasining ilgari surilishi va bosqichma-bosqich amalga oshirilishi bugungi globallashuv jarayonida muhim amaliy qadamlardandir.

Bugun geosiyosiy maydonda turli nizolar, etnik to‘qnashuvlar, iqlim o‘zgarishi, ochlik va tengsizlik, ayirmachilik singari umumbashariy muammolar kuchayib borayotir. Bu kabi jarayonlar dunyo hamjamiyatini hamisha hushyorlikka chaqiradi, hamjihatlik bilan ish yuritishga undaydi. Shu bilan birga, umumbashariy muammolarni bartaraf etishda umummilliy g‘oya, umuminsoniy tuyg‘u, o‘zaro murosa-korlik asosiy maslak bo‘lishi lozimligini taqozo etadi. Ayni shu jihatlarga e’tibor qaratgan holda, Prezident Shavkat Mirziyoyev xalqaro darajadagi sammit va yig‘ilishlarda tinchliksevarlikka qaratilgan ilg‘or tashabbuslarni ilgari surib, dunyo hamjamiyatini birdamlikda ishlashga takror va takror chaqirmoqda. Yangi O‘zbekiston shu orqali o‘z taraqqiyot yo‘lida sobitqadam ekanini ko‘rsatmoqda.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

OGOH VA HUSHYOR NIGOH

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA KIBERXAVFSIZLIK BORASIDA SAMARADOR CHORA-TADBIRLAR QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Jinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘nalishidagi tadqiqotlar yildan-yilga jinoyatlarning yangi turlari paydo bo‘layotganini ko‘rsatmoqda. Dunyoni raqamlashtirishning yuqori sur’atda rivojlanishi ta’sirida jinoyatlar shakllari va uni sodir etish usullari ham zamonaviylashib borayotgani yanada tashvishlidir. Buning natijasida axborot texnologiyalaridan foydalanib, shaxsga va uning mulkiga tajovuz qilishga qaratilgan huquqbuzarliklar, ya’ni kiberjinoyatchilik ko‘paymoqda.

Tahlillar va statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilda kiberjinoyatlar ortidan keladigan yillik global zarar 8,4 trillion dollarga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2026-yilda bu ko‘rsatkich 120 foiz o‘sib, 20 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Shuningdek, ayrim manbalarda ta’kidlanishicha, 2024-yilga kelib, kiberjinoyatlar global transmilliy jinoyatlarning umumiy sonidan ko‘ra, 5 barobar ko‘proq sodir etilishi kutilmoqda.

2025-yilda dunyoda kiberjinoyatlarga qarshi kurashuvchi tuzilmalar davlat va xususiy serverlari, bulutli ma’lumot markazlari, shaxsiy kompyuter va qurilmalarida saqlanadigan jami 2 ming zettabaytlik (2 trillion terabayt) ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashi lozim bo‘ladi. Chunki kiberjinoyatchilikning avj olishi oqibatida istalgan korxona-tashkilotning ma’lumotlar bazasi kiberhujumga uchrashi ehtimolini rad etib bo‘lmaydi. Bu borada mustahkam himoya choralarini ko‘rish talab etiladi. Shu sababli hozir butun dunyoda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatidagi eng dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Bu global muammo O‘zbekiston uchun ham dolzarb. Zero, butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham axborot texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Tabiiyki, bu jarayonda kiberjinoyatchilikning oldini olish ustuvor vazifaga aylanadi. Ayni jihatlar e’tiborga olinib, 2022-yil 15-aprelda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Qonunda kiberxavfsizlikni ta’minlashning asosiy prinsiplari, kibermakonda shaxs, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qilish borasidagi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Davomi 3-betda

AGRAR TARMOQ

“TO‘QSONBOSTI”

ham daromad, ham oziq-ovqat xavfsizligida muhim usul

E’tibor bersangiz, bahor adoqlab, yoz arafasida bozorlarimizda sabzavot mahsulotlari, turli ko‘katlar paydo bo‘ladi. Ro‘zg‘orimizga fayz-baraka olib kiradigan bu kabi sarxil ne’matlar, aslida, “to‘qsonbosti” usuli mahsulidir. Buni iste’molchi sifatida oddiy odamlar yaxshi bilmasliklari mumkin, lekin dehqonlar yaxshi biladi. Nafaqat biladi, balki uni yetishtirish bo‘yicha yetarlicha tajribaga ham ega.

Hozir “to‘qsonbosti” usulida ekin ekishning ayni payti. Shu bois, dehqonlarimiz e’tiborini shu jarayonga qaratmoqda. Binobarin, bu usuldan samarali foydalanishning ahamiyati katta. Odatda, “to‘qsonbosti” ekin ekish ishlari kuzning birinchi oyidan boshlanib, noyabr oyining oxiri — dekabrning boshlarida tugallanadi.

Dehqonchilikda mazkur usul bizda azaldan qo‘llaniladi. Yerga qadalgan urug‘ haqiqiy qish kunlari, ya’ni uch oy davomida tuproq ostida turgani uchun ushbu usul “to‘qsonbosti”, deb ataladi.

Mamlakatimiz aholisining ertagi sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish maqsadida sovuqqa chidamli ekinlardan sabzi, piyoz, osh lavlagi, ko‘katlar (kashnich, petrushka, seldrey, salat) kabi ekinlar “to‘qsonbosti” usulida yetishtiriladi.

Davomi 4-betda

ISLOHOT ODIMLARI

YANGILANAYOTGAN DEHQONOBOD

ODAMLAR TURMUSH TARZINI HAM O‘ZGARTIRMOQDA

Dehqonobod tog‘li tumanlardan biri. Aholisining asosiy qismi tog‘ va tog‘oldi joylarda istiqomat qiladi. Shu paytga qadar asosan, chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Aytarli biror korxona yoki ishlab chiqarish majmuasi bo‘lmagani bois, aholi bandligini ta’minlash doimo hududda katta muammo edi. Lekin islohotlar samarasida bugun tumanda vaziyat tubdan o‘zgarmoqda. Buni erishilayotgan natijalar misolida ham ko‘rish mumkin.

Dovon oshib tuman markaziga kirib borarkansiz, ravon yo‘llar, yangidan-yangi ishlab chiqarish obyektlari, maishiy xizmat ko‘rsatish majmualari, savdo do‘konlarini ko‘rib, ko‘zingiz quvnaydi. Har bir sohada bo‘layotgan yangilanishlar tumanning azaldan mehnatkash va tanti odamlarining turmush tarzida, kayfiyatida aks etmoqda.

Davomi 2-betda

NUQTAYI NAZAR

OROL DARDI ARIYAPTI

BMT Bosh Assambleyasida yangragan nutqdan keyingi o‘ylar

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi keng qamrovli, kun nafasi va ruhi ufurib turgan, mintaqamiz rivojiga xalal berayotgan omillar to‘laqonli tahlil qilingan konseptual dastur o‘laroq yangradi. Undagi masalalar Markaziy Osiyo xalqlarining bir-ikki yillik emas, balki yarim asr nari-berisidagi iztiroblarini o‘zida mujassam etgan. Birgina Orol dengizi fojiasini o‘rganib tahlil qilarkanmiz, uning oqibatlari Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, Orolbo‘yida yashagan aholi uchun naqadar og‘riqli bo‘lganini ko‘ramiz. Buning uchun yaqin o‘tmishga yuzlanib, tarix sahifalarini bir oz varaqlamoq kifoya.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, 2020-yilda 19,3 million aholi xavfli o‘sma kasalligiga chalingani hisobga olingan. Ilm-fanga umumiy onkologik xavfli o‘smalarning 220 turi borligi ma’lum. Shular ichida eng dolzarbi qizilo‘ngach saratoni (qiltomoq)dir. Bu bilan dunyoda har yili 600 mingdan ziyod bemor hisobga olinadi. Bu raqam umumiy o‘sma kasalliklarining 3,1 foizini tashkil qilib, 8-o‘rinni egallaydi. U, ayniqsa, Eron, Sharqiy Xitoy, Janubiy Afrika, Rossiyaning ayrim shimoliy hududlari (Yoqutiston, Buryat o‘lkasi, Boshqirdiston, Tuva, Evenkiya), Turkmaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Qoraqalpog‘istonda yashovchi mahalliy aholi orasida ko‘p uchraydi. Bu jarayon “Osiyo belbog‘i” deb nom olgan.

Bunga sabab sifatida olimlar mazkur hududlarda yashovchi xalq va elatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, xususan, ovqatlanishida o‘zaro umumiylik va o‘xshashlik borligini ko‘rsatmoqda.

Davomi 5-betda

YUKSALISH

ILM-FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI MAHSULI

Ilm-fan va ta’lim. Bu ikki soha o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, jamiyatni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, yirik strategik loyihalarni amalga oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, murakkab texnologiyalarga asoslangan “o‘sish nuqtalari”ni aniqlashda zarur ko‘nikmalarni shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Umuman, ilm-fan va ta’lim integratsiyasi matematika, texnologiya, muhandislik va san’at kabi turli yo‘nalishlar o‘rtasida hamkorlik imkoniyatini taqdim etadi. Bunday tizimli yondashuv orqali fanlararo munosabatlar ham yangi bosqichga ko‘tariladi.

Davomi 5-betda

YANGI O‘ZBEKISTON RUHI

TINCHLIK VA BAG‘RIKENGLIKKA CHORLOV

Bu yangi tashabbuslar umumbashariy muammolarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir

Muzaffarxon JONIYEV,
Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori v.v.b.

Boshlanishi 1-betda

Joriy yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida ham O‘zbekiston Prezidenti xalqaro minbardan turib o‘zbek tilida dunyo hamjamiyatini bir yoqadan bosh chiqarib ishlashga chaqirdi.

Mazkur sessiyada davlatimiz rahbari yangi O‘zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-ma’rifiy sohadagi yutuqlari, o‘tgan yillar mobaynida bajarilgan amaliy ishlar xususida qisqacha tahlillarni keltirib, xalqaro hamjamiyat qo‘llovi bilan Markaziy Osiyoni tinch va gullab-yashnayotgan hududga aylantirish maqsadida **“Markaziy Osiyo iqlim muloqoti”**ni joriy etish va, eng muhimi, BMT Bosh Assambleyasining **“Markaziy Osiyo global iqlim tahdidlari qarshisida: umumiy farovonlik yo‘lida hamjihatlik”** rezolyutsiyasini qabul qilish hamda **“Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030”** dasturini ishlab chiqish taklifini ilgari surdi.

Nutqda ta’kidlanganidek, mamlakatimiz **“Inson qadri va manfaatlari uchun”** g‘oyasi asosida demokratik va adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan tub islohotlar yo‘lidan dadil ilgarilab borayotgan ekan, yangi O‘zbekiston tamadduni rivojida islom ma’rifati, diniy bag‘rikenglik g‘oyalari muhim ma’rifiy mezon vazifasini o‘tashi ayni haqiqatdir.

Shuningdek, yurtimizda “Mehr” insonparvarlik missiyasi doirasida mojaroli hududlardan 530 nafardan ziyod ayol va bola yurtimizga olib kelinib, ularni sog‘lom hayotga qaytarishga doir ishlar qilingani ta’kidlandi. Bu fuqarolarimiz sog‘lom mafkura asosida jamiyatga qaytishi uchun har tomonlama moddiy va ma’naviy ko‘mak berilganini ham unutmaslik kerak. Ayniqsa, joriy yil iyun oyida xalqaro jamoatchilik BMT bosh qarorgohida mamlakatimizga qaytarilgan va yangi hayot boshlagan shaxslar tarixini ularning o‘zidan eshitdi. Albatta, mazkur xayrli ishlar O‘zbekistonda kechirimlilik, xayrixohlik tamoyillari ustuvor ekanini ko‘rsatdi.

Global muammolar jahon miqyosidagi ulkan tahdidu evrilishlarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, terrorizm xavfi bugun o‘zgacha tus va ko‘rinishda namoyon bo‘layotir.

Davlatimiz rahbari buning umuminsoniy ahamiyatiga e’tibor qaratgan holda **“BMTga a’zo davlatlar xalqaro terrorizm kabi umumiy tahdidga qarshi kurashda yanada birlashib, harakat qilishlari kerak”**ligini ta’kidladi.

So‘nggi paytlarda yuzaga kelayotgan diniy toqatsizlik, islomofobiya holatlari ham umuminsoniy muammolardan ekani, unga aslo yo‘l qo‘ymaslik lozimligi alohida tilga olindi. Jahon miqyosida dinlararo bag‘rikenglik va hamjihatlik g‘oyalarini keng targ‘ib etish maqsadida O‘zbekistonda UNESCO shafeligida **“Dinlararo muloqot va bag‘rikenglik”** xalqaro markazini tashkil etish taklifi ilgari surilishi diniy bag‘rikenglik tamoyilini birgalikda, hamjihatlikda amalga oshirishga doir muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston necha ming yillik tarixga ega ildizi baquvvat, ma’rifat chashmasidan oziqlangan, buyuk daholarni bag‘rida ulg‘aytirib, dunyo sivilizatsiyasiga ilm-fan, islom ma’rifati bilan beqiyos hissa qo‘shgan bag‘rikeng diyordir. O‘z davrida islom ma’rifatining ezgulikka yo‘g‘rilgan insonparvarlik, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish g‘oyalari bugungi kunda ham dolzarb sanaladi.

Mazkur boy merosni o‘rganish va keng targ‘ib etish maqsadida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” tamoyili asosida yangicha ruhda ma’rifiy mezonlardan turib yondashilayotganini Prezidentimizning BMT sammitidagi nutqi mazmunida o‘z ifodasini topganini ko‘rish, anglash mumkin: **“Diyorimiz jahon ilm-fani rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan, islomni ilm-ma’rifat va tinchlik dini sifatida namoyon etgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari ulug‘ alloma va mutafakkirlar vatani ekani bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Shunday buyuk olimlarning boy merosini o‘rganish, islomning asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida 2024-yil O‘zbekistonda “Islom — tinchlik va ezgulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish tashabbusini ilgari suramiz”.**



> **“MAMLAKATIMIZ “INSON QADRI VA MANFAATLARI UCHUN” G‘OYASI ASOSIDA DEMOKRATIK VA ADOLAT TAMOYILLARINI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN TUB ISLOHOTLAR YO‘LIDAN DADIL ILGARILAB BORAYOTGAN EKAN, YANGI O‘ZBEKISTON TAMADDUNI RIVOJIDA ISLOM MA’RIFATI, DINIY BAG‘RIKENGLIK G‘OYALARI MUHIM MA’RIFIY MEZON VAZIFASINI O‘TASHI AYNI HAQIQATDIR.**

Islom tinchlik va ezgulik dini sifatida hamisha insoniyat va jamiyat tamadduni, ma’naviy rivojiga hissa qo‘shib kelgan. “O‘rta asr sivilizatsiyasi”, “Temuriylar davri sivilizatsiyasi” kabi nomlar bilan tarix zarvaraqlaridan o‘rin olgan tamaddunlarning yuzaga kelishiga islom dini, uning bunyodkorlik, ezgulikka qaratilgan g‘oyalari to‘g‘ri anglanishi asos bo‘lgan. Xususan, Xorazmiy, Beruniy, Ulug‘bekning ilmiy kashfiyotlari, Imom Buxoriy, Imom Termiziy kabilarning hadis ilmi rivojidagi xizmatlari, umuman, mintaqamiz allomalarining matematika, geologiya-mineralogiya, astronomiya, tafsir, fiqh, adabiyot ilmi rivoji yo‘lidagi sa’y-harakatlari misli ko‘rilmagan ma’rifiy tamaddunni yuzaga keltirdi.

Mazkur an’analarni davom ettirgan holda bugun yurtimizda O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy kabi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyat yuritishi tarixiy taraqqiyotning uzviy davomi bo‘ldi.

Bu markazlar tarixan shakllangan ilmiy maskanlarning amaliy davomchisi sifatida islom sivilizatsiyasi rivojiga munosib hissa qo‘shadi, albatta. Ular bugun jamiyat hayotida sog‘lom e’tiqodni shakllantirish, islom ma’rifatini anglatish, ilmiy tadqiqotlar orqali boy merosni keng targ‘ib etishdek muhim vazifalarni bajarmoqda. Shu bois, **“Islom — tinchlik va ezgulik dini”** mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish tashabbusini ilgari surish zamirida islom dinining asl mohiyatini dunyo hamjamiyatiga tushuntirish va bu orqali diniy nizolar, islomofobiya, terrorizm kabi yot g‘oyalarga nisbatan hamjihatlikda kurashish lozimligiga qaratilgan umuminsoniy harakatlarga chorlov yotadi.

Bu tashabbusning dolzarbligi haqida fikr yuritganda, avvalo, qadimdan ko‘plab madaniyatlarga beshik bo‘lgan va diniy bag‘rikenglik borasida katta tajribaga ega yurtimizda ushbu konferensiya o‘tkazilishining tarixiy ahamiyatini ham unutmaslik lozim. Mazkur anjumanda qabul qilinadigan qarorlar ham nafaqat mamlakatimiz, balki butun yer yuzida tinchlik va farovonlikni ta’minlashga, terrorizmning oldini olishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Umuman, islom hamisha ma’rifat, ezgulik, tinchliksevarlik, bunyodkorlikka chorlaydigan din bo‘lib kelgan. Uning sofligini asrash va targ‘ib qilish, ma’rifiy jihatlarini ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi asosida dunyo hamjamiyatiga taqdim etish o‘zaro totuvlik va birdamlikning muhim asosi bo‘lib xizmat qiladi. Chunonchi, hamjihatlikka qaratilgan xalqaro darajadagi anjumanlarning o‘tkazilishi turli yot g‘oyalarga qarshi kurash va bu boradagi muammolarni birgalikda hal etishga yo‘l ochadi. Bu esa tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim omildir. Albatta, bu ko‘p millatli O‘zbekistonning diniy bag‘rikenglik yo‘lidagi tajribasini butun jahon ommasi bilan baham ko‘rish imkonini beradi.

ISLOHOT ODIMLARI

YANGILANAYOTGAN DEHQONOBOD

ODAMLAR TURMUSH TARZINI HAM O‘ZGARTIRMOQDA

Boshlanishi 1-betda

Hududda olib borilgan islohotlar samarasining keyingi besh yildagi natijalarini tahlil etadigan bo‘lsak, bunda yuqori samaradorlikka erishilganiga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, 2019-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tuman bo‘yicha 543,6 milliard so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib, bu ko‘rsatkich 1356,5 milliard so‘mga yetdi. Eksport salohiyati haqida gap ketganda, bundan besh yil avval hududdan atigi 1,3 million dollarlik mahsulot xorij bozorlariga chiqarilgan. Joriy yil boshidan buyon hozirga qadar bu 8 million dollardan oshdi. Yil yakuniga qadar eksport hajmi yanada ortadi.

— Ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilishi, kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikka keng yo‘l ochilishi tufayli natijalarimiz yaxshilanib boryapti, — deydi Dehqonobod tuman hokimining o‘rinbosari Sherzod Rahimov. — Bu esa aholi bandligini ta’minlash uchun katta zamin yaratmoqda. Albatta, bugun tadbirkorlarga keng qulayliklar berilgan. Bundan unumli foydalangan ishbilarmonlarimiz tarmoqlarini yanada kengaytirib, ish hajmini oshirishga intilmoqda.

Adirlikda katta korxona qad rostladi

Bir paytlar yantoqdan boshqa narsa o‘smagan oddiy adirlikda bugun yangi inshoot barpo etilgan. Zamonaviy korxona atrofi chiroyli bog‘ ko‘rinishini olmoqda.

Loyiha qiymati 60 milliard so‘m bo‘lgan tikuvchilik fabrikasi “Zarafshon tekstil” MCHJning Dehqonobod filiali hisoblanadi. Ushbu korxonani joriy yil fevral oyida Prezidentimiz Qashqadaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida ochib bergandi. Bugun bu yerda 400 ga yaqin aholi bandligi ta’minlangan.

Tayyor trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishga mo‘ljallangan fabrika yiliga bolalar va xotin-qizlarga mo‘ljallangan to‘rt yarim million dona kiyim-kechakni xorijga yetkazib berishni maqsad qilgan.

—“Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turardim, — deydi korxona tikuvchisi Setora Norqo‘chqorova. — Biror joyda ishlamasdim. Bu yerda yangi ishlab chiqarish fabrikasi ochilganini mahallamizdagi hokim yordamchisi aytib, meni shu yerga yo‘llanma orqali jo‘natdi. Kelib uchrashgandim, ishga olishdi. Faoliyat boshlaganimga ikki oy bo‘ldi. Maoshi yaxshi, o‘z ish o‘rnimga ega bo‘lganimdan mamnunman.

Ayni paytda tikuv sexining o‘zida 300 nafardan ortiq xotin-qiz ishlaydi. Ularga yetarli imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, ishga kelib-ketishda avtobuslar qo‘yilgan. Bundan tashqari, madaniy hordiq chiqarishlariga ham sharoit mavjud.

— Men ikkinchi guruh nogironiman. Uyda bekor o‘tirib, rosti kasallanib qoldim, — deydi Malika Eshquvvatova. — Nogironligim tufayli biror joyda ishlolmasam kerak, deb o‘ylagandim. Mahallamizda “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga olishgandi. Bu yerda ish o‘rni ochilganini aytib qolishdi.

Lekin yashash joyimiz bu yerdan 10 kilometr uzoqda edi. Yaqinroq bo‘lganda ishlardim, deya afsuslandim. Keyinchalik bilsam, ishchilar uchun avtobus ajratilgan ekan. Mahallamiz faollari yordami bilan ishga joylashdim. Mana, hozir binoyidek ishlab yuribman. Har oy bir yarim million so‘m oylik olib, ro‘zg‘orga nafim tegmoqda. Oilamning kam-ko‘stini to‘ldirishga yordam berib, o‘zimga bo‘lgan ishonchim ortdi. Tumanimizda shunday korxona ochilganidan xursandmiz.

Ish boshlaganiga ko‘p bo‘lmagan filial allaqachon o‘z mahsulotlarini dunyo bozorida sotishni boshlab yubordi.

“Kim qilib berarkan, deya qarab turmadik”

Tumanning eng yirik qishloqlaridan biri Oqrabot Surxondaryo viloyati bilan chegara hududda joylashgan. U bugun obod maskanlardan biriga aylangan. Qishloqning ichki yo‘llari asfalt qilinib, maktab va maktabgacha ta’lim muassasalari yangi ko‘rinishga keltirilgan. Jumladan, bir paytlar eski, moslashtirilgan bolalar bog‘chasi o‘rnida ikki qavatli zamonaviy maktabgacha ta’lim muassasasi qad rostladi. Barcha sharoitlar yetarli bo‘lgan ushbu bog‘chada 150 ga yaqin bola tarbiyalanadi.

— Shu sohada 18 yildan beri ishlab kelaman, — deydi ushbu maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbari vazifasini vaqtincha bajaruvchi Tursunoy Yusupova. — Oldin bir oz nariroqda moslashtirilgan binoda bog‘chamiz bo‘lardi. Ko‘p yillar o‘sha joyda ishladim. Rosti, mana shunday barcha sharoitlari mavjud maskanni orzu qilardik. U yerda xonalar zax, qishda sovuq, yozda issiq. Bolalar dam olish xonalarida sharoit o‘ziga yarasha edi. Dardimizni kimga aytishga hayron edik. Bugun esa havas qilarli binomiz bor. Hatto qo‘shni qishloqlardan ham otaonalar farzandlarini olib kelyapti.

Bog‘cha yonida joylashgan 7-sonli umumta’lim maktabi binosi ham 1986-yilda qurilgan. Maktab direktori Usmon Hayitovning aytishicha, ikki qavatdan iborat bilim maskani binosi ancha yillar ta’mirga muhtoj ahvolda bo‘lgan. Keyinchalik esa davlat dasturidan 4 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilib, to‘liq ta’mirlandi. Hozirda mingdan ortiq o‘quvchi ta’lim olayotgan bu dargohda o‘quv xonalari, laboratoriya, kutubxona, sport zalida yetarli sharoitlar yaratilgan.

Yana bir jihati, qishloqning ichki yo‘llari asfalt qilinib, tekis va ravon ko‘chaga aylantirildi.

— Maktab va bog‘chamiz kattagina mablag‘ evaziga shu holatga keltirildi, — deydi qishloq yoshlaridan biri Jasur Nazarov. — Ammo ichki yo‘llarimizni ham kimdir qilib berar, deb kutib o‘tirish noto‘g‘ri bo‘lardi. Shu sabab, “Tashabbusli byudjet”da faol ishtirok etish uchun harakatni boshladik. Birlashsak, barchasini uddalash mumkin ekan. Bir mavsumda bir kilometrdan ortiqroq masofaga asfalt qilish uchun loyihamiz bilan g‘oliblikni qo‘lga kiritdik. Belgilangan qismi yangilangach, odamlarda qiziqish yanada ortib, ikkinchi mavsumda ham loyihamiz bilan ishtirok etdik va muvaffaqiyatga erishdik. Shuningdek, uchinchi mavsumda 14 kilometr masofaga shag‘al yotqizish ishlarini ham “Tashabbusli byudjet”da qo‘lga kiritdik. Rostini aytganda, “Tashabbusli byudjet” barchamizni birlashtirdi.

Hunarmand qiz orzusi amalga oshishiga ko‘mak kerak

Mohiro‘y Rahmonova bolaligidan chevarchilikka, gilamdo‘zlikka qiziqdi. Boisi, momosining nasihatlari bilan oilada voyaga yetayotgan har bir qiz gilam to‘qishni, bichish-tikish va kashtachilikni yaxshi bilish kerak bo‘lgan. Xonadonda deyarli har oyda bitta-ikkita gilam to‘qilib, uning tayyorlash sirlari yosh qizlarga o‘rgatib kelingan. Qish kunlari qo‘y juni urchuq orqali yigirilib, ip-kalava qilingan. Bahor kelishi bilan keng maydonlarga qoziq qoqilib, gilam to‘qilgan.

Bugun momolaridan qolgan an’anani davom ettirib kelayotgan Mohiro‘y uch kunda bitta gilam tayyorlab, buyurtmachilarga yetkazib bermoqda.

— Qadimiy “shox”, “g‘ojari”, “bo‘tabo‘yin”, “charxpalak” gilamlarini to‘qishni o‘rganib olganman, — deydi hunarmand qiz. — Bir donasini tayyorlashga uch yuz ming so‘mga yaqin mahsulot ishlatiladi. Tayyor bo‘lgach, besh yuz ming so‘mdan sotamiz. Bundan tashqari, xo‘jalik ehtiyoji uchun kerakli boshqa buyumlar ham to‘qiymiz.

Gilamchilik bilan birga tikuvchilik ham qilaman. Shu kasbning ortidan yaxshigina daromad topib, tarmog‘imizni yanada kengaytirish niyatidaman.

Mehnatkash, oddiygina qishloq qizining orzulari bisyor. Ammo unga bir ozgina ko‘mak kerakligi ko‘rinib turibdi. Qo‘l mehnati orqali tayyorlagan gilamlari bugun faqat mahalliy aholi tomonidan sotib olinmoqda. Aslida, bir oz hisob-kitob qilinsa, mehnat haqiga sotilgan daromad kamlik qiladi. Lekin na iloj, bundan ortig‘ini bozor ko‘tarmaydi. Yosh hunarmandga tuman mutasaddilari hamkorlar topishda ko‘mak berib, imkoniyat yaratishsa, ko‘proq daromad olishga sharoit yaratiladi.

Imtiyoz tadbirkorlarga katta imkoniyat yaratdi

Davlatimiz rahbarining 2022-yil 30-dekabrda “Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra, ixtisoslashuvi hamda kichik biznes uchun mavjud sharoitdan kelib chiqib mamlakatimiz shahar va tumanlari 5 ta toifaga ajratildi. Natijada tuman va shahar toifasiga ko‘ra, tadbirkorlarga soliq imtiyozlari, subsidiyalar berilishi belgilandi. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida birgina Dehqonobod tumani 5-toifaga kiritilgan.

— Joriy yildan Prezidentimiz farmoniga asosan, tumanimiz tadbirkorlarga kattagina imtiyozlar taqdim etildi, — deydi Dehqonobod tuman davlat soliq inspeksiyasi rahbari o‘rinbosari Safarqul Mudirov. — Bugun hududimizda faoliyat olib borayotgan soha vakillari imtiyozlardan unumli foydalanib, olayotgan daromadi hisobiga qo‘shimcha yo‘nalishlar ochmoqda. Yangi loyihalarni ishga tushirmoqda.

Ma’lumki, beshinchi toifadagi tumanda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar uchun foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq va ijtimoiy soliqni to‘lashlarida imtiyozlar qo‘llanilmoqda. Shuningdek, ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat yuritayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat’iy belgilangan so‘mmalarini to‘lashdan ozod qilindi. Hozirda 650 dan ortiq YTTlar bir oy davomida o‘rtacha 60 million so‘m, bir yil davomida 720 million so‘m daromad solig‘ining qat’iy belgilangan qismini to‘lab kelgan bo‘lsa, endilikda ushbu mablag‘lar tadbirkorlarning ixtiyorida qolmoqda.

Aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz etib belgilanishi natijasida tumanda 900 dan ortiq savdo va xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari bir oy davomida o‘rtacha 300 million, bir yil davomida 3 milliard 600 million so‘m soliq to‘lab kelgan. Endilikda bir oy davomida 75 million, bir yil davomida 900 million so‘m soliq to‘laydigan bo‘ldi.

Sirasini aytganda, yurtimizdagi islohot odimlari natijasida yangi Dehqonobod bo‘y ko‘rsatmoqda. Har bir sohada o‘zgarishlar amalga oshirilib, eng muhimi, inson qadri yuksalib, aholining turmush tarzida ijobiy o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Bu esa asosiy maqsad sari faqat qadam oldinga tashlanayotganidan dalolat beradi.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

OGOH VA HUSHYOR NIGOH

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA KIBERXAVFSIZLIK BORASIDA SAMARADOR CHORA-TADBIRLAR QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Saidkamol SODIQOV,
IIV Kiberxavfsizlik markazi boshlig‘i o‘rinbosari, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Boshlanishi 1-betda

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasidan ham bu yo‘nalishda muhim chora-tadbirlar o‘rin olgan. Xususan, internetdan to‘siqlarsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoit yaratish barobarida milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish ustuvor vazifalar sirasiga kiritilgan.

Kiberjinoyatchilikning oldini olish raqamli savodxonlik bilan bog‘liqmi?

Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishda ushbu turdagi jinoyatlarning latentligini inobatga olish kerak bo‘ladi. Mutaxassislar fikricha, kiberjinoyatlarning latentligi AQSHda 80, Buyuk Britaniyada 85, Germaniyada 75, Rossiyada 90 foizdan yuqoridir. Bu esa kiberjinoyatlarning sodir etilishi bo‘yicha real holatlar statistikasi bundan ham yuqori ko‘rsatkichlarni tashkil etishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, kibermakonda xavfsiz muhit yaratish uchun kiberjinoyatlarga qarshi innovatsion yondashuvlar asosida kurashish usullari ishlab chiqilishini taqozo etmoqda.

Bugun jahonda ilmiy tadqiqotlar doirasida kiberjinoyatlarning oldini olish va kibermakonda xavfsiz muhitni yaratish uchun turli yondashuv va uslublar taklif etilmoqda. Xususan, kiberjinoyatlarni tergov qilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi Group-IB kompaniyasi prezidenti Ilya Sachkovning ta’kidlashicha, agar foydalanuvchi kiberxavfsizlik qoidalarini bilsa, u kibermakonda doimo xavfsiz bo‘ladi. Group-IB kompaniyasi tomonidan o‘n yil davomida kiberfiribgarlar shaxsiy ma’lumotlarni o‘zlashtirmasligini nazarda tutuvchi maxsus eslatmalar ishlab chiqildi. Ammo ularning jamiyatda juda sekin tarqalishi tufayli mazkur usul samara bermagan.

Bu yo‘nalishdagi yetakchi tadqiqotchi U.Dizard axborot jamiyatining raqamli transformatsiyasi sharoitida qator muammoli masalalarni hal qilish uchun yangi texnologiyalar taqdim etayotgan imkoniyatlar doimo e’tiborda turishi va ularga qarshi kurashishi kerak bo‘lgan potensial xavflarni o‘z ichiga olishi lozimligini taklif qilgan. Uning fikricha, mazkur masala bo‘yicha rivojlanish strategiyasi muayyan darajada texnik va iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi bilan belgilanishi kerak.

Bu borada bir guruh olimlar qonun hujjatlarida belgilangan jazo choralarini kuchaytirish orqali kiberjinoyatlarning oldini olish mumkinligini ta’kidlasa, boshqalari kiberjinoyatlar ta’lim jarayoni subyektlarining raqamli savodxonligi bilan bog‘liqligini asoslab bergan. Ular o‘z ilmiy xulosalarida kiberjinoyatlarning oldini olishda raqamli ta’lim muhiti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, o‘quv dasturlariga “Kiberxavfsizlik asoslari” o‘quv fanini barcha o‘quvchilar uchun majburiy fan sifatida kiritishni taklif qilgan.

Kiberjinoyatlarning oldini olish bo‘yicha ilmiy markazlar va tadqiqot muassasalari bilan birga ayrim rivojlangan davlatlarda ham yetarlicha strategik usullar ishlab chiqilgan. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ilg‘or tajribaga ega Singapur, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar tomonidan uzoq yillik strategik maqsadlar qo‘yilib, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lgan kiberjinoyatlar oldini olish muammolarining ayrim masalalari yechilgan. Bundan tashqari, bolalar ular ta’siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida UNICEF tomonidan ham bir necha yirik loyiha amalga oshirilgan.

Dunyo aholisi kiberjinoyatchilik tuzog‘iga tushmaslik uchun yetarli axborotga ega emas

Olimlar va mutaxassislar yetakchi ilmiy tadqiqot muassasalari, ilg‘or indeksli reytinglarni yurituvchi muassasalar tomonidan bir nechta davlatda kibertahdidlardan jabrlangan va kiberjinoyat uchun javobgarlikka tortilgan, kiberjinoyatlar qurboni bo‘lishi mumkin bo‘lgan fuqarolar hamda ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnomalarning yakuniy natijalarini tahlil qildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, dunyo aholisining aksariyat qismi internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xavfsizligiga amal qilmayotgani oqibatida kiberjinoyatlardagi viktimologik xususiyatning yuqori darajada saqlanib qolayotgani kuzatildi.

Xususan, Yevropa Ittifoqi Kiberxavfsizlik agentligi (ENISA) tomonidan Yevropaning 20 dan ortiq davlatida o‘tkazilgan so‘rovnomalarga ko‘ra, ishtirokchilarning 48,2 foizi kiberjinoyatlar tuzog‘iga tushib qolmaslik bo‘yicha dastlabki tushunchalarga ega emas. Bundan tashqari, Chexiya Kibernetika va axborot xavfsizligi milliy boshqarmasi (NÚKIB) olib borgan so‘rovlarda esa ishtirokchilarning 42 foizi shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, internet va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish tartibini bilmasligi aniqlangan.

BMT Xalqaro elektraloqa ittifoqi tomonidan tayyorlangan “Xalqaro kiberxavfsizlik — 2022 indeksi” hisobotida 38 foiz mobil qurilmalar foydalanuvchilari ular xavfsizligini ta’minlash (suqilib kirishlar, noma’lum kontentlarni bloklash va boshqa) ko‘nikmalariga ega emasligi qayd etilgan.

Yuqorida o‘tkazilgan so‘rov tadqiqotlari natijalari internet va ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining aksariyati dastlabki kiberxavfsizlik choralarini bilmasligi oqibatida jabrlanuvchi bo‘lish ehtimoli mavjudligidan dalolat beradi. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, fuqarolarni kibertahdidlardan barvaqt ogohlantirish, ularda xavfsizlikning dastlabki elementlariga rioya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish yo‘nalishidagi eng dolzarb vazifalardan biridir.

O‘zbekistonda uch bosqichli targ‘ibot ishlari qanday samara bermoqda?

Yuqorida keltirilgan dolzarb masalalar yuzasidan jamiyatning raqamli transformatsiyasi sharoitida kiberjinoyatchilikning oldini olishda O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligining kiberjinoyatlarga qarshi kurashuvchi bo‘linmalari tomonidan ishlab chiqilgan va joriy etilgan o‘ziga xos yechimlarning bugungi kunda ahamiyati beqiyos. Bu vazifaning samarali ijrosini ta’minlash maqsadida kibermakondan faol foydalanish layoqatiga ega 5 yoshdan 70 yoshgacha bo‘lgan barcha aholini qamrab oluvchi uch bosqichli kompleks targ‘ibot chora-tadbirlari o‘tkazish mexanizmi ishlab chiqilib, to‘liq joriy etilishi belgilab olindi.

Ushbu chora-tadbirlar ta’lim muassasalarida yoshlar, mahallalarda yashovchi aholi vakillari bilan hamda tashkilotlar ishchi-xizmatchilari o‘rtasida quyidagi tartibda o‘tkazildi. Avvalo, ta’lim muassasalari yoshlari bilan “E-kundalik” platformasida kiberxavfsizlik sahifasi joriy etilib, yoshlarni kiberjinoyatchilarning tuzog‘iga tushib qolishdan xabardor qilish uchun targ‘ibot materiallari joylashtirib borildi.

Tiktoker va blogerlar bilan “Men kiberjinoyatga qarshiman” xeshtegi ostida onlayn va oflayn tadbirlar o‘tkazildi. Yoshlar ittifoqi bilan hamkorlikda ta’lim muassasalari yoshlari o‘rtasida kiberxavfsizlik bo‘yicha tanlovlar va kibero‘yinlar tashkil etildi. Talabalar shaharchasida haftaning har chorshanba kuni “kibergigiyena kuni” deb belgilanib, “CyberDay” xeshtegi ostida tadbirlar, seminar hamda treninglar o‘tkazildi.

Kiberxavfsizlikni ta’minlashga o‘rgatuvchi ramziy qahramon obrazi yaratilib, profilaktik tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida ta’lim muassasalariga kirish joylari va sinfxonalarga o‘rnatilgan soatlarda uning tasviri aks ettirildi. Yoshlarni yangi turdagi kibertahdidlardan ogohlantirib boruvchi qo‘llanmalarga ega bo‘lgan, ko‘p funksiyali mobil ilova ishlab chiqildi.

> **DAVRNING BUGUNGI DOLZARB MUAMMOLARIDAN BIRI KIBERXAVFSIZLIKKA QARSHI KURASHISHDA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI CHUQUR O‘ZLASHTIRISH BAROBARIDA ATROFIMIZDAGI VOQEA-HODISALARGA HAMISHA OGOHLIK VA HUSHYORLIK NIGOHI BILAN BOQISH MUHIM. ZERO, SERGAKLIK VA HUSHYORLIK JAMIYAT RIVOJIGA TO‘SIQ BO‘LADIGAN GLOBAL MUAMMOLARGA QARSHI KURASHISHDA, TINCHLIK VA TARAQQIYOTGA ERISHISHDA MUHIM OMILDIR.**

Joylarda “Mahallamizda kiberjinoyat bo‘lmaydi” shiori ostida targ‘ibot tadbirlari tashkil etildi. Profilaktika inspektorlari foydalanuvidagi planshetlarga kiberjinoyatlar va unga qarshi kurashish bo‘yicha elektron qo‘llanmalar o‘rnatildi. Mahallada aholini kibertahdidlardan ogohlantirib, tegishli tavsiyalar berib boruvchi onlayn platforma joriy etildi. Unda har bir oila uchun maxsus yaratilgan shaxsiy kabinet orqali alohida yondashuv asosida ularni qiziqtirgan sohaga oid masalalar bo‘yicha tushuntirishlar berildi. Keksa yoshli aholi orasida bank plastik karta raqamlarini va SMS-xabarnomalarni begona shaxslarga bermaslik bo‘yicha manzilli targ‘ibotlar olib borildi.

Korxona va tashkilotlar bilan kiberjinoyatlardan ogohlantiruvchi tadbirlar tashkil etish bo‘yicha memorandumlar imzolandi. Bunday tadbirlarda qatnashgan ishchi-xizmatchilar o‘rtasida kiberjinoyatchilik profilaktikasi bo‘yicha ma’ruza va taqdimotlar o‘tkazildi. Tashkilotlarga kirishda, ko‘pchilik to‘planadigan joylarda targ‘ibot materiallari joylashtirildi. Shaxsiy va xizmatga oid ma’lumotlar oshkor etilishining oldini olish bo‘yicha tushuntirishlar, amaliy tavsiyalar berildi.

Bundan tashqari, barcha hududlar va aholini to‘liq qamrab olish maqsadida Ichki ishlar vazirligi tomonidan kibertahdidlarga oid murojaatlarni qabul qilish va kiberxavfsizlik bo‘yicha yo‘riqnomalar berib borishda qulay, tezkor va maqbul bo‘lgan veb-sayt, mobil ilova, telegram bot yaratildi. IIV Kiberxavfsizlik markazining “Youtube”, “Telegram”, “Facebook”, “Instagram”, “Tik-tok”, “Twitter” va “WhatsApp” ijtimoiy tarmoqlardagi manzillari yaratilib, ular orqali targ‘ibot materiallari joylashtirib borildi.

Yuqorida taklif etilgan usul “kibermakonda” xavfsiz muhitni ta’minlash bo‘yicha taklif etilgan mutlaqo yangi yondashuv bo‘lib, kiberjinoyatlarni bartaraf etishda universal yechimlarni o‘z ichiga olishi bilan ajralib turadi.

Ana shunday izchil targ‘ibot-tashviqot ishlari va amaliy chora-tadbirlar natijasida eng chekka mahallalarda yashovchi aholi o‘rtasida ham kiberjinoyatlarga qarshi tura oladigan ijobiy muhit shakllantirilmoqda. Targ‘ibot tadbirlarini virtual olam bilan uzviy bog‘lash orqali uning samaradorligi yanada oshirilmoqda. Aholining barcha qatlamida kibergigiyena, kiberjinoyatlardan himoyalovchi immunitet yuzaga kelmoqda. Yoshlarda kiberxavfsizlik bo‘yicha huquqiy savodxonlik shakllanib, ular tomonidan turli huquqbuzarliklar sodir etilishining oldi olinmoqda. Kiberjinoyatlarning oldini olish mexanizmi harakatga kelib, ushbu turdagi jinoyatlar ko‘rsatkichi keskin kamayishiga erishilyapti.

Yuqorida taklif etilgan yondashuv kiberjinoyatlarning oldini olish yo‘nalishida bir necha yillik ilmiy va amaliy faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy tadqiqotchi va mutaxassislar tomonidan mualliflik asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, uni asoslash va amaliyotga joriy etish jarayonida yuqori samaraga ega ekani namoyon bo‘ldi. Shu bois, kiberjinoyatlarning oldini olish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarga mazkur usuldan foydalangan holda uning bevosita o‘zlashtirilishi yoki muqobillari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilinishi tavsiya etiladi.

Davrning bugungi dolzarb muammolaridan biri kiberxavfsizlikka qarshi kurashishda zamonaviy axborot texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirish barobarida atrofimizdagi voqea-hodisalarga hamisha ogohlik va hushyorlik nigohi bilan boqish muhim. Zero, sergaklik va hushyorlik jamiyat rivojiga to‘siq bo‘ladigan global muammolarga qarshi kurashishda, tinchlik va taraqqiyotga erishishda muhim omildir.

MUNOSABAT

O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA HAMKORLIGI YANGI BOSQICHGA CHIQMOQDA

Qahramon ERGASHEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

O‘zbekiston va Rossiya ikki tomonlama ko‘p qirrali hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun ulkan salohiyatga ega. Uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan oqilona siyosat natijasida keyingi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar yangi bosqichga chiqmoqda. Bugun o‘zaro milliy manfaatlarni hisobga olgan holda konstruktiv muloqotning yangi shakli yo‘lga qo‘yildi. Ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, to‘g‘ri tashkil etilgan tizimli chora-tadbirlar samarasi bugun erishilayotgan yuksak natijalarda namoyon bo‘lmoqda.

Sanoat kooperatsiyasi jadal rivojlanib, O‘zbekistonda Rossiya investitsiyalari hajmi oshib bormoqda. Munosabatlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha hamkorlik salmoqli darajada yuksalayotir. Sanoat kooperatsiyasini, eng avvalo, mashinasozlik, metallurgiya, energetika, qayta ishlash, to‘qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda kengaytirish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi qo‘shma guruh tuzilgan. So‘nggi yillarda tog‘-kon va metallurgiya, yoqilg‘i-energetika, kimyo, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, to‘qimachilik va boshqa sohalarda 100 dan ortiq qo‘shma loyiha amalga oshirildi.

Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikda miqdoriy ko‘rsatkichlar barqaror o‘sish barobarida sifat jihatidan ham o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ilgari o‘zaro tovar ayirboshlash tarkibining aksariyatini xomashyo tashkil etgan bo‘lsa, bugungi kunda savdoning 70 foizi yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlarga to‘g‘ri keladi.

Yengil va kimyo sanoati, avtomobilsozlik, sog‘liqni saqlash va farmatsevtika tarmoqlarida innovatsion loyihalar salmog‘i ortib borayotgani kuzatilmoqda.

O‘zbekiston va Rossiya doimo savdo-iqtisodiy hamkorlikni chuqurlashtirishga qat’iy amal qilib keladi. Birgina o‘tgan yil davomida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 50 foizga oshgani ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarda ulkan iqtisodiy salohiyat mavjudligidan yaqqol dalolat beradi.

Rasmiy Toshkent va Moskva o‘rtasidagi madaniyatlararo muloqot jadal rivojlanmoqda. Xususan, madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator kelishuvlarga erishildi.

Ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar haqida gapirganda, parlamentlararo aloqalar ham izchil rivojlanayotganini alohida ta’kidlash joiz. Bu parlamentlar vakillarining tashriflari orqali mustahkamlanmoqda. O‘zbekiston Oliy Majlisi Senati va Rossiya Federatsiyasi Federal Majlisi Federatsiya Kengashi o‘rtasida hamkorlik bo‘yicha komissiya hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Federal Majlisning Davlat dumasi bilan hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo guruh tuzildi. Bu, o‘z navbatida, ikki mamlakatning strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston va Rossiya BMT, MDH, SHHT va boshqa global hamda mintaqaviy tuzilmalar doirasida yaqindan hamkorlik qiladi, bir-birining tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlaydi. BMT platformasida o‘zaro hamkorlik Bosh Assambleya kun tartibidagi asosiy masalalar va tomonlar ilgari surgan tashabbuslar bo‘yicha pozitsiyalarni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasida hal etib bo‘lmaydigan muammolar yo‘q. Mintaqaviy hamda xalqaro darajada ko‘p tomonlama hamkorlikning samarali mexanizmlari ishga solingan va ular hayotga izchil tatbiq etilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putinning taklifiga binoan shu yil 5-7-oktabr kunlari ushbu davlatga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni barcha yo‘nalishlarda jadal rivojlantirishda yangi sahifa ochdi.

Prezidentlar kun tartibidagi keng ko‘lamli masalalarni muhokama qildi. Natijada ko‘plab sohalarda amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochadigan muhim kelishuvlarga erishildi.

Tashrifning muhim jihatlaridan biri shundaki, erishilgan kelishuvlarning aksariyati savdo-iqtisodiy va investitsion hamkorlikni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Jumladan, Keng ko‘lamli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonot qabul qilingani o‘zaro munosabatlarda yangi davrni boshlab berish barobarida O‘zbekiston — Rossiya sherikligi rivojiga kuchli turtki bo‘ldi.

Shuningdek, davlat rahbarlari huzurida ikki mamlakat hukumatlari va vazirliklari tomonidan imzolangan 10 ta hujjat almashildi. Samarqand shahrida Rossiya Federatsiyasining bosh konsulxonasini ta’sis etish, vakolatli iqtisodiy operator institutlarini o‘zaro tan olish, “Agroekspress” tezkor temir yo‘l tashuvlarini tashkil etish loyihasini amalga oshirish to‘g‘risidagi bitimlar, Tashqi ishlar vazirliklari o‘rtasida 2024-2025-yillar uchun hamkorlik dasturi, transport, ilm-fan, ta’lim va madaniyat sohalarida hamkorlik bo‘yicha hujjatlar shular jumlasidan.

Shu nuqtayi nazardan, tashrif doirasida erishilgan kelishuvlar shubhasiz, O‘zbekiston va Rossiya o‘rtasidagi hamkorlikni bir qator istiqbolli yo‘nalishlarda yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘zaro munosabatlarni sifat va mazmun jihatidan boyitib, manfaatli hamkorligimizni yangi, yuqori bosqichga ko‘tarishga zamin yaratadi.

Muxtasar aytganda, O‘zbekiston va Rossiya hamkorlik munosabatlari keng ko‘lam kasb etib, strategik sheriklik aloqalari yuksak darajaga ko‘tarilmoqda. Prezidentimizning bu galgi tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda oldinga tashlangan dadil qadam bo‘ldi.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

AGRAR TARMOQ

“TO‘QSONBOSTI”

ham daromad, ham oziq-ovqat xavfsizligida muhim usul

Shuhrat TESHAYEV,
Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari, ijrochi direktor,

Rustam NIZOMOV,
Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, xalqimiz salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, biz uchun hayotiy muhim masala. Qishloq xo‘jaligidagi islohotlardan maqsad — iqtisodiy foyda ko‘rish bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, xalq farovonligini oshirishdan iborat.

Ertagi mahsulot yetishtirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash uchun hozirdan harakat qilish, “to‘qsonbosti” ekinlari-

ni o‘z vaqtida ekib, agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Buning uchun kuzda asosiy ekinlardan bo‘shagan maydonlarni sifatli shudgorlab, sovuqqa chidamli ekinlar ekish zarur. Chunki erta bahorda yog‘ingarchilik hisobiga yerning yetilishi, ayniqsa, o‘tloq yerlarda qiyin bo‘ladi, ertagi ekinlarni ekish muddati cho‘zilib ketadi.

Shuningdek, “to‘qsonbosti” usulida ekilgan sabzavot urug‘lari ko‘klamda juda barvaqt unib chiqib, tez rivojlanishi hisobiga hosil erta yetiladi. Shu sababli, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, tahlillarga ko‘ra, hududiy hokimliklarning takliflariga asosan, barcha toifa xo‘jaliklari tomonidan 2024-yil hosili uchun jami 529 ming gektar (2022-yilga nisbatan 323,1 ming gektar ko‘p), shundan 386,5 ming gektarga avgust-sentabr oylarida piyoz va sarimsoqpiyoz hamda 142,5 ming gektarga noyabr-dekabr oylarida “to‘qsonbosti” usulida sabzavot ekinlari ekish belgilandi.

Umuman, fermer xo‘jaliklarining 75,8 ming gektar, aholi tomorqasida 186,8 ming gektar hamda dehqon xo‘jaliklarida 266,4 ming gektar yerga ekiladi. Shundan 195,7 ming gektarida piyoz, 66,8 ming gektarida sarimsoqpiyoz, 71,4 ming gektarida sabzi, 17 ming gektarida osh lavlagi, 117,7 ming gektarida ko‘katlar, 17,3 ming gektarida rediska, 43,1 ming gektarida karam parvarishlanadi. Natijada 2024-yil fevral, mart, aprel oylarida jami 10,8 million, ya’ni 2022-yilga nisbatan 5,8 million tonna ko‘p ertagi hosil olinishi kutilmoqda.

Yetishtiriladigan oziq-ovqat mahsulotlarining 410 ming tonnasi (82,3 million dollar) eksportga, 777 ming tonnasi shahar va tuman yarmarkalariga va 9,6 million tonnasi ichki iste’molga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

“To‘qsonbosti”ning yana bir afzalligi, sovuqqa chidamli sabzavotlardan erta ko‘klamda arzon va mo‘l hosil yetishtirish imkonini beradi. Bu esa, o‘z navbatida, kundalik oziq-ovqat mahsulotlari tanqis “ilik uzildi” paytida vitaminli mahsulotlar bilan ichki bozor ehtiyojini qoplash, eksport imkoniyatlarini kengaytirib, dehqonlarni daromadli qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, yerdan samarali foydalanish, mavsumda ikki va uch marta hosil olishga erishish hamda mahsulotni bozorga erta olib chiqish imkonini beradi.

Sabzavotlar “To‘qsonbosti” usulida qish oldidan ekilganda, urug‘lar past haroratdagi namlikda ko‘pchib bo‘kadi, yarovizatsiya davrini tabiiy sharoitda qishlab o‘taydi, chidamli urug‘lar erta bahorda past haroratda maysalaydi.

Yana bir jihat, bahorda ob-havo o‘zgaruvchan bo‘lib, har doim ham ekish va urug‘larning unishi uchun qulay sharoit bo‘lavermaydi. Qish oldidan ekilgan ekinlar esa, ob-havoga qarab qulay unib chiqish davrini o‘zi aniqlaydi. Hatto, yerning loy bo‘lib qulay muddatning cho‘zilishi yoki qurg‘oqchil kelib tuproq namining qochishi ham bu ekinlarga ta’sir ko‘rsatmaydi.

Bu usulda ekilib mo‘ljallangan sabzavot ekinlarining urug‘i qishki yog‘inlar ta’sirida asta-sekin bo‘rtib, erta ko‘klamda, havo haroratining past bo‘lishiga qaramay, maysalar tez o‘sib chiqadi. Natijada ushbu maysalar bahorgi qisqa muddatli sovuqlarga bardoshli bo‘lishi bilan birga, ko‘klamda ekilganiga nisbatan 10-15 kun erta pishadi va serhosil bo‘ladi. Ayniqsa, bahor seryog‘in kelib, yerlar ishlov berishga yetilmay, ekish muddati cho‘zilib ketgan yillarda bu yanada ahamiyatli. Har qanday holatda ham bahorda katta maydonlarga ekin ekish kerak bo‘lgan davrdagi eng qimmatli vaqtni tejaydi.

Shu o‘rinda fikrimizni mazkur usulning asosiy ekinlaridan biri — piyoz misolida davom ettirsak foydadan xoli bo‘lmaydi, nazarimizda. Chunki piyoz eng ko‘p iste’mol qilinadigan va bozorbop qishloq xo‘jaligi mahsuloti hisoblanadi. Piyoz urug‘i “to‘qsonbosti” usulida hududlarning tuproq-iqlim sharoitini inobatga olgan holda, janubiy viloyatlarda 1-30-dekabrda, markaziy viloyatlarda 15-noyabr-15-dekabr, shimoliy viloyatlarda 1-noyabr-1-dekabr kunlarida sepiladi. Bunda mahalliy “Bahoroy”, “Hamal”, “Istiqbol”, “Zafar” va xorijiy “Manas”, “Daytona”, “Leone”, “Banko” navlarini ekish tavsiya qilinadi.

Piyoz urug‘i gektariga 18 kilogrammgacha, yerning nishabligiga qarab qator oralarini 70-90 santimetrdan olib, 3-4 qatorli usulda yoki qo‘lda sochiladi. Urug‘lar yerga 1,5-2 santimetr chuqurlikka ko‘miladi. Piyoz urug‘i sepilgandan so‘ng maydon sug‘orilmaydi. Barcha agrotexnik tadbirlar bahorda boshlanadi. Bahorda bo‘yi 6-8 santimetrga yetganda, ya’ni ikkinchi marta bog‘lab chiqariladigan tovar holiga kelganda, o‘toq va yagana qilinadi.

Qator oralari 15-16 santimetr chuqurlikda ishlov beriladi.

Piyoz havo namligi past bo‘lgan joylarda yaxshi o‘sadi, sernam tuproqda rivojlanadi. “To‘qsonbosti” usulida ekilgan piyoz bahorda maysalari ko‘ringandan keyin sug‘oriladi. Birinchi suv odatda, bahorgi yog‘in-sochin to‘xtagandan keyin beriladi.

Bahor seryog‘in kelgan yillarda bu muddat aprelning ikkinchi yarmiga, yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yillar esa aprelning boshlariga, ayrim hollarda hatto, mart oyining oxiriga to‘g‘ri keladi.

Piyozdan yuqori hosil olish uchun har gektar yerga yuqori unumdor maydonlarda sof holda 250 kilogramm azot, 200 kilogramm fosfor, 80 kilogramm kaliy beriladi. Tuproq unumdorligiga qarab, miqdor ko‘paytirilishi mumkin. Fosfor yillik miqdorining 70-75 foizi yerni ekishga tayyorlashda, qolgan qismi esa birinchi oziqlantirishda beriladi. Azot bilan o‘suv davrida teng ikkiga bo‘lib oziqlantirgan ma’qul. Birinchi oziqlantirish piyoz yagana va o‘toq qilingandan so‘ng, ikkinchisi esa boshi shakllana boshlaganda beriladi. Boshqa ekinlarning ham o‘ziga xos parvarishlash jarayoni mavjud.

Umuman olganda, dehqonchilikda “to‘qsonbosti” usuli aholini ertagi sabzavotlar bilan kafolatli ta’minlash, ichki bozorda narx-navo barqarorligini saqlash va eksport hajmini oshirishga munosib hissa qo‘shishi bilan alohida ajralib turadi. Binobarin, iste’molchilarning sabzavot va poliz mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘laqonli qondirish, yerdan samarali foydalanish orqali ko‘proq mahsulot yetishtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Chunki hozirgi murakkab sharoitda ichki bozorda narx-navo oshib ketmasligi ko‘p jihatdan yerdan qanchalik omilkorlik bilan foydalanishga chambarchas bog‘liq.

YANGICHA YONDASHUVLAR

BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MARKAZLARI

Talabalarni tadbirkorga aylantiradi

Shodiyor NARZULLAYEV,
iqtisodchi

G‘oyani aniq harakatga aylantirib, ishlab chiqarishga faol joriy etish muvaffaqiyatli biznesning asosiy shartlaridan biri. Ammo hamma ham buning uddasidan chiqolmaydi. Chunki har qanday biznesni rivojlantirish uchun uni iqtisodiy manbalar bilan ta’minlash, ya’ni moliyalashtirish talab etiladi. Sarmoya qancha ko‘p bo‘lsa, yangi biznes loyihalar, tadbirkorlar soni shuncha ortib boradi. Buning ortidan tadbirkorlik muhiti shakllanadi.

Gap kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash hamda zarur shart-sharoitlar yaratish haqida boryapti. So‘nggi yillarda mamlakatimizda bu borada sezilarli tajriba to‘plangani, qulay va erkin biznes muhiti yaratilishi ortidan barcha sohada ishbilarmonlar soni ortayotgani sir emas. Aniq biznes g‘oyasiga ega, istiqbolli loyihalar ustida ish olib borayotgan har bir fuqaroni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, huquqiy ko‘mak berishga yo‘naltirilgan markazlar, tashkilotlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Yurtimiz hududlarida ishlab turgan kovorking va innovatsion markazlar, texnopark va boshqa yirik ishlab chiqarish maydonlarida yuzlab, minglab g‘oyalar moliyalashtirilib, hayotga tatbiq etilmoqda. Yangi ixtiro va ishlanmalar, ilmiy kashfiyotlar esa barcha sohalar rivojiga xizmat qilayotgani, ayniqsa, quvonarli. Vaholanki, bir necha yillar oldin biz faqat xorijliklar yaratgan yangi ixtirolar haqida eshitar, hayrat bilan kuzatar edik. Bugun esa ularni o‘zimizning yoshlarimiz, iqtidorli yigit-qizlar ham yaratmoqda.

Mehnat bozorida ish beruvchilar ko‘payadi

Yangi ixtiro va biznes g‘oyalarni ilmiy asoslarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ya’ni har qanday g‘oya asosida ma’lum bilim, izlanish yotadi. Shu bois, jahon amaliyotida intellektga sarmoya kiritish, ta’limni moliyalashtirish eng muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi. Dunyodagi ilmiy izlanishlar, yangilik va kashfiyotlarning ko‘pi aynan ta’lim dargohlarida yaratilishi buning isboti.

Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan katta islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri ham ta’lim, ilm-fanni rivojlantirish ekani sir emas. Bu borada tashlangan qadamlar, qisqa vaqtdagi o‘zgarishlar haqida uzoq gapirish mumkin. Ammo biz masalaning iqtisodiy jihatiga, ya’ni 2022-yil 1-yanvardan 35 ta yetakchi davlat oliy ta’lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik va qo‘shimcha vakolatlar berilganiga e’tibor qaratmoqchimiz. Bir qarashda, bu oddiy qarordek. Biroq o‘z mablag‘ini o‘zi boshqarish imkoniyatidan ko‘plab maqsadlarda unumli foydalanish mumkin. Masalan, moliyaviy mustaqillik OTMga talabalar orasida biznes muhitini shakllantirish, istiqbolli g‘oyalarni ko‘proq moliyalashtirish, biznes bo‘yicha nazariy bilimlar berish imkoniyatini ham oshiradi. Bu orqali talabalar o‘qish bilan birga, o‘z tadbirkorligi ortidan moliyaviy mustaqillikka ega bo‘ladi. Zero, zamonaviy ta’lim muassasalarining bugungi kundagi vazifasi bilim berish, kadrlarni tayyorlash bilan birga, o‘zini iqtisodiy ta’minlay oladigan shaxslarni shakllantirishdan ham iborat.

Chunki mamlakatimiz aholisining yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Har yili minglab yigit-qiz ta’lim muassasalarini tamomlaydi. Bitiruvchilarni munosib ish bilan ta’minlash esa asosiy muammolardan biri. Bordiyu, barcha ta’lim muassasalarida mutaxassislikdan tashqari, biznesga oid bilimlar berilib, talabalar tadbirkorlikka yo‘naltirilsa, mehnat bozoriga ish izlovchilardan ko‘ra ko‘proq ish beruvchilar kirib boradi. Ya’ni hozirgi davrda biz ta’lim dargohini tamomlagan yoshlarning qayerga ishga joylashgani haqidagi hisobotlarni talab qilishdan ko‘ra, bitiruvchilarning qanchasi o‘z biznesiga ega bo‘ldi, qancha ish o‘rni yaratgani haqida ko‘proq o‘ylashimiz, monitoringini yuritishimiz zarur bo‘ladi. Buning uchun esa ta’limning barcha yo‘nalishlarida tadbirkorlikka oid bilimlar berish, qobiliyatli yigit-qizlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini yanada oshirish maqsadlidir. Biznesni rivojlantirish markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish esa buning eng samarali yechimlardan biri bo‘ldi.

Nomidan ham ma’lumki, bunday markazlar kichik va o‘rta biznesning boshlang‘ich rivojlanishi uchun qulay shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi. Bu talabaga tadbirkorlikka oid bilim berishdan to uning istiqbolli biznesini moliyalashtirishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga qamrab oladi. Jahon tajribasi, yosh avlodning g‘oya va loyihalari aksariyat hollarda katta foyda keltirishini ko‘rsatmoqda. Ammo yigit-qizlarning hammasi ham o‘z g‘oyalarini amalga oshirish uchun yetarli bilimga ega emas. Ta’lim muassasalarida joriy etiladigan biznesni rivojlantirish markazlari ana shu zarur nazariy bilimlarni shakllantirish, amaliy ko‘maklashish vazifasini o‘taydi. Qolaversa, bunday markazlar xususiy sektorga turli xizmatlar ko‘rsatish orqali iqtisodiy manfaatga ham ega bo‘ladi.

Hozir biznes markazlari ancha ommalashib boryapti. O‘tgan asrning 80-yillarida jahonda 100 ga yaqin biznes markazi mavjud bo‘lgan, 1992-yilda ular soni 972 taga, 1995-yilda salkam ikki mingtaga yetdi. Bugungi kunda esa dunyo bo‘yicha 3,5-4 mingdan ortiq yirik biznes markazi bor. Ular innovatsion markaz, texnopark, texnopol, ilmiy park, o‘quv ishlab chiqarish markazi va boshqa turli ko‘rinishlarda faoliyat yurityapti. Bunday markazlarning asosiy maqsadi resurslarni o‘zlashtirish, innovatsion mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazish, ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashishdan iborat.

So‘nggi yillarda dunyoning ko‘plab davlatlarida ushbu markazlarga tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli shakli sifatida qaralmoqda. Nafaqat AQSH, balki boshqa qator mamlakatlarda shunday markazlar soni keskin o‘sishda davom etyapti. Qator MDH davlatlari, xususan, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonda ham bunday innovatsion qo‘llab-quvvatlash tizimi allaqachon rivojlana boshladi.

Zarurat ham, sharoit ham bor

Biznesni rivojlantirish markazlari deyarli barcha sohalarga faol kirib boryapti. Ta’lim tizimida ham unga zarurat bor va yurtimiz ta’lim sohasidagi islohotlar hamda OTMlarga moliyaviy mustaqillik berilishi bunday markazlarga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda. Qolaversa, mamlakatimizda yaratilgan qulay erkin tadbirkorlik muhitidan talabalar, yosh intellekt egalari ham unumli foydalanishi lozim.

Xorijlik olim, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sovrindori G.Bekker o‘zining nazariyalaridan birida intellektual kapitalga ham davlat, ham xususiy sarmoya kiritilishi zarurat ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, ta’lim, tibbiyot va kadrlar salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy dasturlarga sarmoya kiritish — bu yangi texnologiyalarni yaratishni qo‘llab-quvvatlash bo‘lib, kelajakda, albatta, katta foyda keltiradi.

Biznesni rivojlantirish markazlari haqida ham shunday deyish mumkin. OTM va xususiy tadbirkor birgalikda talabaning g‘oyasini qo‘llab-quvvatlashi asnosida yangi biznes yaratilishiga ko‘maklashadi. Ya’ni ta’lim muassasasi markaz faoliyati uchun zarur bino, joy va boshqa manbalarni yaratib bersa, tadbirkor u yerda talabalarning biznesga o‘qishi va amaliy harakatlarini moliyalashtiradi.

Dunyo tajribasi biznesni rivojlantirish markazlari sonining o‘sishi bir qator muammolarni hal etishda samarali yechim ekanini ham ko‘rsatmoqda. Xususan, ta’lim muassasalarining iqtisodiy-moliyaviy faolligini yaxshilash, kichik va o‘rta biznes tashkil etadigan talabalar sonini oshirish, kapital, mehnat, ishlab chiqarish, tabiiy va boshqalarni o‘z ichiga olgan hududiy resurslardan to‘liq foydalanish, startap loyihalar faolligini oshirish hamda “nou-xau” texnologiyalarini tijoratlashtirish shular jumlasidan. Bu o‘z-o‘zidan aholi bandligini ta’minlash orqali turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Ya’ni tadbirkorlar soni qancha ko‘p bo‘lsa, hududlarda shuncha ko‘p ish o‘rni yaratiladi.

Buning uchun, avvalo, milliy OTMlarda biznesni rivojlantirish markazlarini moliyashtirish manbalarini (modelini) ishlab chiqish zarur. Talabalar ulardan o‘z biznes

xizmatlarining barcha turlarida foydalana olishi kerak. Jarayonda istiqbolli g‘oya va loyihalar ekspertlar kengashi tomonidan bir necha bosqichdagi xulosalar asosida tanlanadi. Tanlovdan muvaffaqiyatli o‘tgan talabaga o‘z biznesini boshlashi uchun barcha huquqiy va amaliy yordamlar ko‘rsatiladi.

Biznesni rivojlantirish markazining yana bir o‘ziga xos tomoni shundaki, yangi ish boshlayotgan talaba-tadbirkorga binoni ijaraga olishdan tortib, barcha jarayonlarda imtiyozli shartlar asosida xizmat ko‘rsatiladi. OTM ham talabaning tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda qator vazifalarni zimmasiga oladi. Jumladan, nomzodlar bilan tadbirkorlik faoliyati asoslari bo‘yicha o‘quv tadbirlarini tashkil etish, yosh tadbirkorlarni ro‘yxatdan o‘tkazishga ko‘maklashish, marketing tadqiqotlari olib borish, yarmarka va ko‘rgazmalarda birgalikda qatnashish va hokazo.

Ta’lim muassasalarida biznesni rivojlantirish markazlarining tashkil etilishi (qayta ochilishi) hozirgi vaqtda universitetlardagi o‘quv xonalari va zarur zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan o‘quv laboratoriyalar, bo‘sh xonalarning mavjudligi bilan osonlashadi. Ularni loyihalar amalga oshiriladigan maxsus xonalarga aylantirib, kerakli vositalar bilan jihozlash mumkin.

Bir so‘z bilan aytganda, oliy o‘quv yurtlarida ham zamonaviy biznes markazlari ochish va ularni jadal rivojlantirish vaqti keldi. Ular talabalarning o‘z biznes g‘oyalarini amalga oshirishi uchun muhim platforma vazifasini o‘taydi. Bu ko‘plab yoshlarga rag‘bat berib, qisqa vaqtda ish beruvchi, tadbirkor talabalar soni ortishiga xizmat qiladi. Kichik va o‘rta biznesda qo‘shimcha qiymat yarata oladigan yangi tadbirkorlik subyektlari, soliq to‘lovchilar vujudga keladi. Bitiruvchilar orasida esa ish beruvchilar soni ortib boradi.

YUKSALISH

ILM-FAN VA TA’LIM INTEGRATSIYASI MAHSULI

Fazilat QODIROVA, Innovatsion rivojlanish agentligi boshqarma boshlig‘i

Boshlanishi 1-betda

Dunyoning yetakchi davlatlari tajribasida ilm-fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlashda mamlakatning oliy ta’lim muassasalari bilan samarali ishlash mexanizmini yo‘lga qo‘yishga alohida urg‘u berilgan. Bu, o‘z navbatida, global muammolarni hal qilish ko‘nikmasiga ega, tanqidiy fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyot fan va ta’lim integratsiyasi talabalarning tahliliy tafakkurini rivojlantirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Fan tabiatan ma’lumotlarni tahlil va talqin qilish, mantiqiy fikrlash va dalillarga asoslangan xulosalar shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

Shu kunlarda OTMlarda ilm-fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlash bo‘yicha qator ishlar qilinyapti. Jumladan, Prezidentimizning 2022-yil 6-iyuldagi “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, 58 ta OTMda yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha 377 ta loyiha (217,8 milliard so‘mlik) bajarilmoqda. Shuningdek, 2023-2026-yillarda 31 ta OTMda drayver innovatsion loyihalar bo‘yicha 118 ta loyiha (240,9 milliard so‘mlik), ilmiy hajmdor mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan yangi innovatsion akademik korxonalar tashkil etish bo‘yicha 20 ta OTMda 40 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Bu sa’y-harakatlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida OTMlarda 374 ta tadqiqot va rivojlanish laboratoriyasi hamda markazi tashkil etildi. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va tijoriylashtirishga ko‘maklashish uchun 98 ta innovatsion startap akselerator va inkubator ochildi. Bundan tashqari, 84 ta ixtisoslashgan yangi innovatsion (spin off) korxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Joriy yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida 57 ta OTMda jami 182 ta ilmiy loyiha bajarilmoqda. Ushbu ilmiy tadqiqotlarga 99 milliard so‘m ajratilgan.

Yoshlarning ilm-fanga kirib kelishini qo‘llab-quvvatlash katta ahamiyatga ega. Busiz ilmdagi avlodlar almashinuviga, tadqiqotchilik zanjirini davom ettirishga erishib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, 2021-2023-yillarda mamlakatimiz bo‘yicha doktoranturaga qabul kvotasi uchun 11 ming 248 o‘rin ajratilgani dadil qadam bo‘ldi. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutlariga 10 ustuvor yo‘nalish (sun’iy intellekt, matematika, fizika, kimyo, biologiya, biotexnologiya, tuproqshunoslik, geologiya, qishloq xo‘jaligi, energetika va elektrotexnika) bo‘yicha oxirgi besh yilda jami 4951 ta kvota ajratildi.

Ilm-fan sohasini raqamlashtirish borasida ham qator ishlar bajarildi. Jumladan, oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimi to‘liq raqamlashtirildi. Bunda oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga ega tashkilotlarga doktorantura, tayanch doktorantura va stajyor-tadqiqotchilik bo‘yicha davlat byudjeti hisobidan kvota ajratish jarayoni phd.mininnovation.uz axborot tizimi orqali tashkil etilib, to‘liq elektron shaklga o‘tkazildi. 2023-yilga kelib, mazkur axborot tizimida 42 ta vazirlik va idora, ular tasarrufidagi ilmiy darajali kadrlar tayyorlash instituti mavjud 219 ta OTM va ilmiy tashkilotga oid ma’lumotlar joylashtirildi. Ayni paytda ushbu saytda 14 ming 606 nafar izlanuvchi haqida ma’lumotlar jamlangan.

Ilm-fan va ta’lim sohasidagi tadbirlar samaradorligini yanada oshirish, jumladan, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan ilmiy tadbirlarning yuqori ilmiy-tashkiliy darajasini ta’minlash hamda tadbir ishtirokchilariga qo‘shimcha qulaylik yaratish uchun anjumanlar.uz platformasi ishga tushirildi. Bu yil xalqaro va respublika miqyosidagi qariyb 600 ga yaqin ilmiy anjuman, seminar hamda ilmiy-texnik tadbir o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Oliy ta’lim muassasalarining ilmiy ishlari va innovatsiyalari natijasini baholash platformasi ishlab chiqilmoqda. Mazkur axborot tizimini yaratishdan asosiy maqsad OTMlarda innovatsion va ilmiy rivojlanish siyosatini amalga oshirishdan iborat.

Ilm-fan va ta’lim integratsiyasini mustahkamlash maqsadida yurtimizdagi oliy ta’lim muassasalarida 231 ta ilmiy laboratoriya faoliyat yuritmoqda. Ularda avtomatika, arxeologiya, axborot texnologiyalari, biologiya, geografiya, geologiya, geologiya va mineralogiya, gidravlika, gidrogeologiya, yengil sanoat, irrigatsiya, kimyo, konchilik, qishloq xo‘jaligi, qurilish va arxitektura, materialshunoslik, mashinasozlik, melioratsiya, metallurgiya, mexanika, nanotexnologiya, oziq-ovqat, radiotexnika, robototexnika, seysmologiya, standartlashtirish, texnologiya va jarayonlar, tibbiyot, to‘qimachilik, farmatsevtika va farmakologiya, fizika, fizik-kimyo, fiziologiya, ekologiya, elektronika, elektrotexnika, energetika, energetika va avtomatika bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmoqda.

2018-2022-yillarda mazkur laboratoriyalarda 1820 ta ilmiy uskuna mavjud edi. Ularni jihozlash uchun davlat byudjeti hamda hamkor va homiylar tomonidan 1,475 trillion so‘m ajratilgan. Shuningdek, 7 ta ilmiy-tadqiqot laboratoriyasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun Jahon banki mablag‘i hisobidan umumiy qiymati 11,411 million AQSH dollariga teng 767 ta jihoz va uskuna xarid qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Milliy universitetida molekulyar va hujayra biotexnologiyasi, Toshkent tibbiyot akademiyasida tibbiy-genetik tadqiqotlar, Toshkent davlat agrar universitetida ekofiziologik tadqiqotlar, Toshkent davlat transport universitetida metallshunoslik, Toshkent davlat texnika universitetida energiya tejamkor texnologiyalar, nazorat-o‘lchov va avtomatlashtirilgan tizimlar, Toshkent arxitektura-qurilish universitetida qurilish materiallari, Toshkent kimyo-texnologiya institutida oziq-ovqat mahsulotlari va texnologiyalari ilmiy tadqiqot laboratoriyalari jihozlangan.

Xalqaro standart talablariga mos keladigan oliy ta’lim tizimini yaratish bo‘yicha qilinayotgan bu kabi keng ko‘lamli ishlar va tarmoqqa qaratilayotgan e’tibor sohani yangi bosqichga ko‘tarishi kutilmoqda.

NUQTAYI NAZAR

OROL DARDI ARIYAPTI

BMT Bosh Assambleyasida yangragan nutqdan keyingi o‘ylar

Mels KABULOV, Qoraqalpog‘iston tibbiyot instituti professori, tibbiyot fanlari doktori, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi

Boshlanishi 1-betda

Bu xalqlar boshqa joyga ko‘chganda ham qizilo‘ngach saratoni bilan kasallanish yuqori darajada saqlanib qolgan. Shu sababli bu genetikaga bog‘liqligi to‘g‘risida fikrlar mavjud. Bemorlarning 70 foizi 55 yoshdan kattalardir. Bu kasallikka ayollarga qaraganda, erkaklar to‘rt barobar ko‘p chalinadi.

Qizilo‘ngach saratoni profilaktikasi, xastalikni erta aniqlash va zamonaviy davolash uslublari dunyo miqyosida haligacha to‘liq ishlab chiqilmagan. Shu bois, tashxis qo‘yilgandan keyin bir yilda bemorlarning o‘lim ko‘rsatkichi eng yuqori — 60 foizligicha qolmoqda. Aksiga olib, ularning 45 foizi kasallikning uchinchi-to‘rtinchi bosqichida shifo izlab kelmoqda. Biroq onkolog va radiologlar bu og‘ir xastalikni davolashga ojiz. Chunki qizilo‘ngach saratoni tez rivojlanish (bir oyda 2 santimetr o‘sishi kuzatiladi), kattalashish, limfa tuguni va qo‘shni to‘qimalarga shiddatli tarqalish xususiyatiga ega.

Qoraqalpog‘istonda yashovchi mahalliy aholi orasida qizilo‘ngach saratoni bilan kasallanish ko‘rsatkichi har yuz ming aholiga 40 nafardan ko‘p bo‘lgan. Shuni e’tiborga olib, kasallikni erta aniqlash va o‘z vaqtida davolash uchun 1972-yili O‘zbekiston hukumati maxsus qaror qabul qiladi. Unga muvofiq, Nukusda Respublika onkologiya va radiologiya ilmiy tekshirish institutining Qoraqalpog‘iston filiali tashkil qilindi. Filialga asosiy vazifa sifatida “Qizilo‘ngach saratoni” nomli maxsus 10 yillik ilmiy-amaliy dastur ishlab chiqish topshirildi. Shunday qilib, nima sababdan qizilo‘ngach saratoni qoraqalpoq populyatsiyasida ko‘p uchraydi, degan savolga javob izlay boshladik. Bu ishni bajarish uchun reprezentativ hudud etib Mo‘ynoq tumani, nazorat hududi sifatida Taxtako‘pir tumani belgilandi. Chunki 1973-yili Mo‘ynoq tumanida qizilo‘ngach saratoni kasalligi ko‘rsatkichi har 100 ming kishiga 111,6 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, Taxtako‘pir tumanida 44,4 nafar edi.

Birinchi bosqichda qizilo‘ngach saratoni epidemiologiyasi va rivojlanish sabablarini keng miqyosda o‘rganish uchun kasallikning shahar va qishloq aholisida uchrashi, erkak va ayollarning xastalanish ko‘rsatkichidagi farq, endoskopik skrining yuritish, ovqatlanishda xalqimizga xos xususiyatlar, meva-sabzavotlarning kam iste’mol qilinishi, alkogol ichish, tamaki va nosvoy chekish kabi yomon odatlarga o‘rganib qolish kabilarga doir 76 savoldan iborat so‘rovnoma tuzib chiqildi. Uni sog‘ va bemor aholi orasida tarqatib, to‘ldirtirish va 1980-1990-yillarda natijani kuzatib, tahlil qilish ko‘zda tutilgan edi.

Izlanishlar natijasida bir fakt onkolog olimlarni hayratda qoldirdi: erkaklar va ayollar orasida qizilo‘ngach saratoni bilan kasallanish qariyb teng — 49 foizga 51 foiz edi. Bunday ko‘rsatkich dunyoning hech bir davlatida kuzatilmagan. Demak, qizilo‘ngach saratonini keltirib chiqaruvchi salbiy sabablar erkak va ayollarga teng ta’sir qilmoqda, degan xulosaga keldik.

Ikkinchi bosqichda ilm-fanning onkologiya sohasidagi ma’lumotlariga asoslanib, qizilo‘ngach saratoni kelib chiqishiga organizmda A va S vitaminlari yetishmasligi sabab bo‘lishi mumkin, degan taxminni isbotlash uchun Mo‘ynoq tumanida yashovchi qariyb 600 kishidagi S vitamini miqdori aniqlandi. Ulardan 56 kishi sog‘lom bo‘lib, 289 nafari qizilo‘ngach silliq qavati yallig‘lanishi, 83 nafari qizilo‘ngach saratoni va 164 bemor boshqa xastaliklar tufayli hisobda turganlar edi. Tekshirilganlardan 80 foizining qoni tarkibida S vitamini miqdori me’yordan 1,5-2 barobar kamligi, lekin suyuqlik bilan ajralib chiqishi normadan 2 barobar ko‘pligi tasdiqlandi. Bu holat iqlimning ko‘p vaqt issiq bo‘lishi, haddan ziyod terlash natijasida A va S vitaminlari ter orqali chiqib ketishi bilan bog‘liq, degan fikrga kelindi.

Shu bilan birga, qizilo‘ngach saratonoldi kasalliklari bor 250 bemor qonidagi A vitamini miqdori tahlil qilindi. Natijada vitaminning qondagi ko‘rsatkichi me’yordan 3,6-5,8 barobar kamligi aniqlandi. Bu ma’lumotlarga asoslanib, qizilo‘ngach saratoni kelib chiqishida qonda A va S vitamini yetishmovchiligi muhim rol o‘ynaydi, degan xulosaga keldik. Chunki qizilo‘ngach silliq qavatida har 45 kunda to‘qima almashinuvi sodir bo‘lishida A va S vitamini hamda oqsillarning roli juda katta. Inson organizmida shu moddalar yetarli bo‘lmasa, to‘qima almashinuvi jarayoni o‘zgarib, silliq qavatda yallig‘lanishga moyillik paydo bo‘ladi.

Uchinchi bosqichda aholi o‘rtasida 13795 endoskopik (qizilo‘ngach, oshqozon va o‘n ikki barmoqli ichak) skrining va 642 morfologik tekshiruv o‘tkazildi. Natija tekshirilganlarning 4275 nafari, ya’ni 31 foizi qizilo‘ngach shilliq qavatida xronik ezofagit va leykoplakiya kasalliklari borligi, ularning 70 foizida klinik belgilar yo‘qligi biz, shifokorlarni hayratda qoldirdi. Bu bemorlar 5-10 yil davomida kuzatilganda 1 foizining xastaligi qizilo‘ngach saratoniga aylangani, ayrimlarida esa 20 yildan keyin ham o‘sma rivojlangani tasdiqlandi.

Yana bir muhim xulosa: qizilo‘ngach saratoniga duchor bo‘lgan bemorlarning 15 foizida xastalikning avloddan-avlodga o‘tish alomati aniqlandi. Bunday holat dunyoning hech bir davlatida bu darajada uchramagan va aniqlanmagan. Muhim ilmiy-amaliy yangiliklar va tahlillar asosida O‘zbekiston hukumati qarori bilan reprezentativ Mo‘ynoq tumanida yashovchi 24 ming aholining 6 yoshdan katta farzandlariga ro‘yxat bilan 250 mg S vitamini draje sifatida kuniga 2 martadan va katta yoshlilarga kuniga 3 martadan tarqatildi. Bu murakkab amaliyot 7 yil uzluksiz bajarildi hamda o‘rta tibbiyot xodimlari, o‘qituvchilar, shifokorlar va filial xodimlari tomonidan nazorat qilindi.

Endoskopiya asosida yarali ezofagiti va leykoplakiyasi, displaziyasi bor hamda kasallikning belgilari yaqqol sezilgan bemorlar shifoxonalarda mutaxassislar ishlab chiqqan metodik qo‘llanma asosida maxsus standartdagi dori-darmonlar, kompleks vitamin va oqsillardan foydalangan muolaja qilindi hamda yaxshi natijalarga erishildi. Bu xastalar muntazam shifokorlar kuzatuvida bo‘ldi. Erta tashxis qo‘yilib, qizilo‘ngach saratoni aniqlangan bemorlar esa Respublika onkologiya dispanseriga yotqizildi va maxsus davolash amaliyoti o‘tkazildi. Tegishli xulosalarga asoslanib, jarrohlik, nur va kimyoviy dorilar bilan davolash tavsiya etildi hamda amalga oshirildi. Natija yaxshi bo‘lgani sababli bemorlar ushbu og‘ir kasallikdan to‘liq davolanib, ahvoli yengillashishiga ishonch hosil qildi.

Dasturda ko‘rsatilgan barcha ishlar bajarilgani xususida tegishli yuqori tashkilotlar hamda xalqimizga hisobot berib borildi. Qilingan ilmiy-amaliy kompleks ishlar va erishilgan muhim natijalar xalqaro va mamlakat miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda aytildi, jurnal va kitoblarda chop etildi. 10-15 yilda

300 dan ortiq maqola, 5 monografiya nashr qilindi, 2 ta ixtiro patentlandi. Ilmiy faoliyatda esa 1 doktorlik va 3 nomzodlik dissertatsiyasi yoqlandi. Rossiyada chop etiladigan nufuzli xalqaro ilmiy jurnalda mashhur olimlar, akademik va onkolog professorlarning filialimiz mutaxassislari o‘tkazgan izlanishlar e’tirof etilgan maqolasi chiqdi. Eng muhimi, Qoraqalpog‘istonning barcha tumanida uzumchilik, bog‘dorchilik va poliz ekini yetishtiriladigan maydon tashkil qilindi. Bu orqali aholi dasturxoni vitamin hamda oqsilga boy meva-sabzavot bilan ta’minlandi.

Keyingi yillarda bolalar va o‘smirlar, homilador ayollarga hududiy tibbiyot muassasalari tomonidan turli vitaminlar tarqatilmoqda. Mamlakatda birinchi bo‘lib Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatidagi maktablarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bepul ovqatlantirish tizimi joriy etildi. Keytering tashkilotlar orqali yetkazib beriladigan taomning tabiiy vitamin va oziq moddalarga boy, to‘g‘ri ovqatlanish me’yorlariga muvofiq bo‘lishi zarurligi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorida alohida mustahkamlandi. Bu sa’y-harakatlar biz yuqorida qayd etgan darmondorilar yetishmovchiligini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz.

Saratonoldi barcha kasalliklar orasida yarali ezofagit 23,4 foizni tashkil qilib, qizilo‘ngachning pastki qismida ko‘p kuzatiladi. Uning saratonga aylanish xavfi boshqa turlarga nisbatan yuqori. Sababi, silliq qavatdagi yaraga tuz parchasi, saraton chaqiruvchi ayrim og‘ir metall, pestitsidlar joylashib oladi. Bu holat salbiy ta’sirini 10-15 yil o‘tgandan keyin ko‘rsatadi. Bunga Orolning qurigan tubidan uchgan tuz-qum aralash havodan nafas olish sababdir. Qayd etish kerakki, so‘nggi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan Orol dengizining qurigan tubida 1,7 million gektar maydonda qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklardan iborat yashil hudud barpo etilgani mana shu xavfni sezilarli kamaytirdi. Biroq erishilgan natija bilan kifoyalanmoqchi emasmiz. Shu bois, bu sa’y-harakatlarni davom ettirish uchun xalqaro hamjamiyatning qo‘llab-quvvatlashi juda muhimligi alohida qayd etildi.

Qizilo‘ngach saratoning kelib chiqish sabablaridan biri suv tarkibi buzilishi bilan bog‘liq. 1980-1990-yillarda suv tarkibini o‘rganish uchun daryo, quduq va yopiq suv havzalaridan 10 mingdan ziyod namuna olinib, tahlil qilindi. Natijada ichimlik suv tarkibida minerallar 2,5 barobar, xavfli og‘ir metall, pestitsidlar, ayniqsa, geksoxloran me’yordan 1,5 barobar yuqoriligi aniqlandi. Oxirgi bir necha yilda mana shu muammo ham yechim topayotganini ko‘ryapmiz. Orolbo‘yi aholisini toza ichimlik suv bilan ta’minlashga doir salmoqli ishlar bajarildi. Bu sa’y-harakatlar hamon to‘xtagani yo‘q. Prezidentimizning 2022-yil 24-maydagi “Aholining ichimlik suv ta’minoti va oqova suv xizmatlari bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida Qoraqalpog‘iston bo‘yicha ichimlik suv ta’minoti og‘ir holatdagi mahallalarning ichimlik suv ta’minotini yaxshilash bo‘yicha alohida ko‘rsatma mavjud. Ichimlik suv sifati oshishi aholi orasida uchraydigan turli yuqumli kasalliklar bilan birga, qiltomoq paydo bo‘lishining ham oldini olishga xizmat qiladi.

Ko‘p yillik kompleks profilaktik sa’y-harakatlar natijasida qizilo‘ngach saratoni bilan kasallanish ko‘rsatkichi yildan-yilga pasaymoqda. Masalan, 1973-yili Qoraqalpog‘istonda har 100 ming aholiga 52,8 nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022-yilga kelib 8,8 nafarga tushdi, ya’ni 6 barobar kamaydi. Ayniqsa, Mo‘ynoq tumani aholisi orasida qizilo‘ngach saratoni bilan kasallanish ko‘rsatkichi keskin pasaydi. Bu mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimida qilinayotgan ishlar, ko‘p yillik chora-tadbirlar va dasturlar besamar ketmayotganining yorqin tasdig‘idir.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news

Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligi

O'z DAVRINING birinchi aqli



Mamlakatimizning turli hududlarida "Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining jahon fani rivojidagi o'rni" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar bo'lib o'tdi. Jumladan, Beruniy tumani, Nukus, Urganch, Xiva hamda Toshkent shaharlarida olimlar va tadqiqotchilar dunyo ilm-fani e'tirofidagi qator mavzularda fikr almashdi.

Tadbirlarda Turkiya, Ozarbayjon, Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Italiya, Malayziya, AQSH, Eron, Qozog'iston, Tojikiston, Rossiya, Misr kabi 20 ga yaqin davlatdan kelgan mehmonlar hamda mamlakatimizning yetakchi professorlari, ziyolilar va yosh izlanuvchilar qatnashdi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Fanlar akademiyasi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Madaniyat vazirligi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Xorazm viloyati va Toshkent shahri hokimliklari hamkorligida tashkil etilgan mazkur ilmiy-amaliy anjuman tadbirlari qizg'in muzokaralarga boy bo'ldi.

Yangi ilmiy maktablarga poydevor yaratilmoqda

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning birinchi kuni Qoraqalpog'iston Respublikasida o'tdi. Ishtirokchilar Beruniy tumanida ulug' alloma sharafiga o'rnatilgan haykal poyiga gulchambar qo'ydilar. Tuman Madaniyat saroyida allomaning ilmiy merosiga bag'ishlangan tadbirda qiziqarli ma'ruzalar tinglandi, spektakl namoyishi esa qalblarga o'zgacha zavq bag'ishladi. Amfiteatrda qo'yilgan konsert dasturi ham ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi.

— Prezidentimizning Beruniy tavalludining 1050 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori ulug' ajdodimiz ilmiy-ma'rifiy merosini yanada chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish yo'lida muhim qadam bo'ldi. Bu esa pirovardida, Yangi O'zbekistonning irfoniy va ruhiy asoslarini mustahkamlash, yangi ilmiy maktablar yaratish va rivojlantirishga xizmat qiladi, — dedi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari Minhojiddin Mirzo.

Pokistonlik olim Imran Parvez Xon esa konferensiya davomida o'z taassurotlari bilan o'rtoqlashdi:

— Men Qoraqalpog'istonga birinchi marotaba tashrif buyurdim. Tan olish kerak, konferensiya o'tkazish g'oyasi juda ajoyib va men tashkiliy ishlardan juda mamnun bo'ldim. Shaxsan o'zim Beruniyning matematika va kartografiyaga oid ilmiy qarashlarini o'rganganman va konferensiyada shu yo'nalishdagi ma'ruzam bilan ishtirok etyapman. O'ylaymanki, bu konferensiya chet davlatlardan kelgan ko'plab olimlar uchun o'zaro fikr almashish maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Abu Rayhon Beruniyning ilm ummoni nechog'liq poyonsiz ekanini uning ulkan qomusiy olim sifatida yaratgan asarlari yaqqol ko'rsatib turibdi. Falsafa ilmi bilimdoni bir vaqtning o'zida astronom, matematik, geolog, geograf, biolog, o'lkashunos, o'simlikshunos, ma'danshunos, tarixchi, manbashunos, dinshunos, adabiyotshunos, jamiyatshunos, mantiqshunos, ilohiyotchi va shoir bo'lgan. Akademik I.Krachkovskiy so'zi bilan aytganda, Beruniyning shug'ullangan sohasini sanashdan ko'ra, shug'ullanmagan sohasini sanash osonroq.

Dunyo tan olgan o'n olimning biri

Anjumanning ikkinchi kuniga Xorazm viloyati mezbonlik qildi. Mehmonlar Ma'naviyat va ma'rifat markazi binosida mutafakkir hayoti va ilmiy faoliyati haqida hikoya qiluvchi sahna ko'rinishi bilan qarshi olindi. Shundan so'ng Abu Rayhon Beruniyning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi, alloma ilmiy merosida amaliy fanlarning o'rni kabi

yo'nalishlarda ma'ruzalar tinglandi. Xorijlik olimlarning Nurillaboy saroyiga, ochiq osmon ostidagi muzey — Ichanqal'aga, o'z davrida ko'plab olimlarni bir nuqtaga birlashtirgan, mustaqillik yillarida qayta tiklangan Xorazm Ma'mun akademiyasiga tashrifi taassurotlarga boy bo'ldi.

Tojikistondan tashrif buyurgan mutaxassis Abdulhay Komiliy: "Beruniyning ilmiy merosini biz ham katta qiziqish bilan o'rganamiz. Anjuman doirasida buyuk olimga nisbatan hurmatimiz yanada oshdi. Mezbonlik qilgan o'zbek xalqiga, jumladan, xorazmliklarga katta rahmat aytamiz. Ichanqal'aga uyushtirilgan sayohatni esa bir umr unutmasam kerak", deya o'z munosabatini bildirdi.

Turkiyalik professor Mustafa Demirjining taassurotlari ham o'ziga xos:

— Ilmiy faoliyatim davomida bir necha o'n yillar mobaynida Abu Rayhon Beruniy asarlariga tez-tez murojaat qilaman. Bugun alloma tug'ilib-o'sgan yurtga kelganimdan bag'oyat xursandman. Universitetda talabalar bilan Beruniy o'qishlarini tashkil etamiz, kitoblarida ko'tarilgan masalalarni o'rganib muhokama qilamiz. Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, Abu Rayhon Beruniy dunyo tan olgan o'n olimning biridir. Uning mavzuga qarashi ma'lumot beruvchi, tavsiflovchi va tushuntiruvchi — chin ma'noda zamonaviy akademik qarashdir. Har bir asari fanlar tarixida yangi ufqlar ochgani bejiz emas.

Abu Rayhon Beruniyning ilmiy g'oya va tushunchalari dunyoning ilmiy manzarasini, o'z davrining dunyoqarashini rivojlantirishga, binobarin, bu davr falsafasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Taniqli fan tarixchilaridan biri Jorj Sarton XI asrning birinchi yarmini jahon fani taraqqiyotida "Beruniy davri", olimning o'zini esa o'z davrining birinchi aqli deb atagan. O'tkazilayotgan ilmiy-amaliy konferensiya orqali olimning yanada buyukligi o'z tasdig'ini topdi.

Hindistonlik olim Ashraf Ponnchethil aytganidek, allomaning taxallusi "shahar tashqarisida" degan ma'noni bersa-da, Abu Rayhon Beruniy bugun hech bir millat uchun "tashqarida" emas, uning dahosi bilan o'zbek ham, hind ham, umuman, butun dunyo, barcha xalqlar faxrlanadi.

Toshkent "yashillanib borayotgan" go'zal shahar ekan...

Anjuman ishtirokchilarini bir nuqtaga to'plagan navbatdagi manzil Toshkent shahri bo'ldi. Mehmonlar dastlab "Yangi O'zbekiston" bog'ida Mustaqillik monumentiga gul qo'ydilar. Kun davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida tarixiy qo'lyozmalarni varaqladilar, Adiblar xiyoboniga sayohat qildi, Alisher Navoiy hamda Abu Rayhon Beruniy haykallari poyiga gulchambar qo'ydi. Shundan so'ng O'zbekiston Milliy universiteti olimlari bilan uchrashuv o'tkazdi, Toshkentning ko'hna qiyofasini o'zida aks ettirgan Hazrati Imom majmuasini tomosha qildi hamda Temuriylar tarixi davlat muzeyidagi "Kitab al-saydana fi-t-tibb" kitobi taqdimotida ishtirok etdi. Ayniqsa, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazidagi ulkan bunyodkorlik ishlari mehmonlarda o'zgacha taassurot qoldirdi.

Italiyalik tadqiqotchi Massimiliano Borroni anjuman tadbirlaridan va Toshkent manzaralaridan mamnun ekanini quyidagicha bayon etdi:

— Anjuman tadbirlari bizga g'oyat manzur bo'lmoqda. Toshkent menga juda yoqdi. Daraxtlarga to'la manzarasi, Adiblar xiyoboni, madaniy yodgorliklari… Toshkent "yashillanib borayotgan" go'zal shahar ekan. Umuman, hammasi chiroyli. Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy sabab shu manzillarga keldik. Aytishim o'rinliki, sizlarning ajdodingiz juda qobiliyatli va juda zehnli bo'lgan. Uning ko'p asrlar oldin yaratgan asarlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Alloma merosini o'rganishga astoydil harakat qilyapmiz. Sharqshunoslik institutida qadimiy qo'lyozmalarni o'qib ko'rdim, bu jarayon meni hayajonga soldi…

AQSHdan tashrif buyurgan professor Akles Nensi Mak-Kornak ham Toshkent bilan bog'liq taassurotlarini yashirib o'tirmadi:

"Toshkent meni anchadan beri qiziqtirardi. Shu sababli kelgan kunimdan boshlab shahar tabiatini va odamlarini ko'proq kuzatishga harakat qildim. Bildimki, bu yerdagilar tozalikni juda yaxshi ko'rishadi, doim ko'chalarni supurishadi, zinalarni yuvishadi, gullarga suv quyishadi. Toshkentning tarixiy yodgorliklari bilan tanishdim. Taassurotlarim bir olam".

Alloma merosi turli madaniyatlarni yaqinlashtirmoqda

"Hyatt Regency" mehmonxonasida anjumanning asosiy qismi bo'lib o'tdi. UNESCOning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Sara Noshadi onlayn tabrik yo'llab, buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi kelajak avlodlarni ham ilhomlantirishda, madaniyatlarni bir-biriga yaqinlashtirishda davom etaversin, deya ezgu tilak bildirdi.

Konferensiyada Eron Islom Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi birinchi maslahatchisi Mas'ud Niliy ham ishtirok etdi.

— Beruniy shaxsi va ilmiy merosi eronliklar uchun ham qadrli, ko'plab fors olimlari uning asarlari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borgan. Tadbirga katta hayajon va qiziqish bilan yetib keldim. Ochig'i, ilmiy anjumandagi muhit meni judayam to'lqinlantirdi, — dedi u jumladan.

Ikki sho'ba majlislari qizg'in ruhda o'tdi. Mamlakatimiz va chet el olimlarining 40 dan ziyod ma'ruzalarida Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosining turli jihatlari yoritib berildi. Ayniqsa, xorijlik mutaxassislar alloma haqida to'lqinlanib so'zlashdi. Shubhasiz, buyuk alloma shaxsi bunday hurmat-e'tibor va e'tirofga munosibdir. Malayziyaning Hadhari Islom instituti professori Fariza Sham ta'biri bilan aytganda, "Har bir yosh avlod Beruniyni o'zi uchun ibrat deb bilsa, uning insoniy xususiyatlariga ergashsa, unga o'xshashga intilsa, hayotiga yanada mazmun kiradi va katta ishlarga qodir bo'ladi".

Tadbir ishtirokchilariga maxsus sertifikat, anjumanning ma'ruzalar to'plami, Abu Rayhon Beruniy asarlarining ko'pjildligi va esdalik sovg'alar taqdim etildi. Yakdillik bilan ta'kidlanganidek, bunday xalqaro konferensiyalar ilmiy rivojlanish va xalqaro do'stlik aloqalarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. O'tgan to'rt kunlik xulosalardan anglash mumkinki, ilmiy-amaliy anjuman oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlarga a'lo darajada erishildi. Jahon beruniyshunosligi yangi tadqiqotlar uchun turtki oldi.

Sirojiddin RUSTAMOV,
jurnalist

XOTIRA UYG'ONSA GO'ZAL

Shiddatkor do'st yodi

O'tgan asrning oltmishinchi yillarida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti (hozirgi universitet) o'zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olayotgan yoshlar orasida Xayriddin Saloh, Yusuf Shomansur, Nizom Komil, Tursunboy Yo'ldosh, Habib Karim, Abdurayim Otametov, O'ktam Usmonov bilimi va teran badiiy nigohi bilan alohida ajralib turardi. Oliy dargohdagi "Chashma" to'garagini zamon allomasi Maqsud Shayxzoda va yosh shoir O'tkir Rashid boshqarib, yoshlarga otalarcha g'amxo'rlik qilardi. Hatto Maqsud muallimning Yusuf, Xayriddin va Abdurayimga "oq yo'l" tilab, turkum she'rlarini gazetalarda ommalashtirgani, dastlabki kitoblariga so'zboshi yozgani guvohi bo'lganman.

Ijodkor kursdoshlar orasida kim ko'p kitob o'qishi borasida bahs-musobaqa bo'lar edi. Hatto paxta terimi mavsumida O'ktamning etagidan Mopassan hikoyalari, Xayriddinnikidan Geyne lirikasi, Nizomnikidan Belyayev romanlari tushmasdi. Bu ham o'ziga xos ijodiy jarayon ekan. Zero, keyinchalik O'ktam Usmonov ana shu tayyorgarlik asosida Mopassan hikoyalarini tarjima qildi. U tashkilotchiligi, talabchanu bahstalabligi, do'stlar uchun jonfidoligi bilan boshqalarga ibrat edi. Tezkor-u puxtakorlik ham unga xos xususiyatlardan bo'lgan.



> O'ta zakiy, shiddatkor adib va jamoat arbobi O'ktam Usmonov do'stlari uchun fidoyi inson edi. Bundaylar yorug' olamni tark etsalar ham ezgu ishlari, hayotiy ibrati bilan qalblarda yashayveradi.

Ilk maqola

Uchinchi kursda o'qib yurganimda respublika gazetalarida bir necha maqolam bosildi. Negadir rus tilida ham biror maqolam e'lon qilinishini juda-juda xohlar edim. Ittifoqo qo'limga "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan pedinstitutlarning o'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabalari uchun mo'ljallab nashr etilgan o'qish kitobi — "Kniga dlya chteniya" tushib qoldi. O'qib chiqsam, matnlar tarjimasida, qahramonlar, joy nomlari yozilishida g'ij-g'ij xato. Kitobni yana bir jiddiy ko'rib chiqdim-da, "Sto oshibok v odnoy knige" maqolasini yozib, O'ktam Usmonovga ko'rsatdim. Darsdan keyin u maqolani sinchiklab o'qidi, ayrim tuzatishlar kiritib:

— Yuring tahririyatga, — deb meni "Sovetskiy pedagog" ko'p nusxali gazetasi mas'ul kotibi I.Zimon huzuriga olib bordi. Maqolani ko'rgan mas'ul kotib "Indinga kelasizlar, men maqolani ko'rib qo'yaman", dedi. Ikki kundan keyin borsak, kotib matnni jiddiy tahrirlab, tayyorlab qo'yibdi.

— Maqolani mashinkada xushnavis qilib ko'chirtiring-da, Davletshinga ko'rsating, — dedi menga qarab Zimon. O'sha kezlari O'rta Osiyo psixologlari sarvari, "Sovetskiy pedagog" muharriri Muhammad Davletshin o'quv ishlari bo'yicha prorektor etib tayinlangan edi. Ertasi kuni ustoz huzuriga borib, maqolani ko'rsatdim. U matnni o'qib chiqdi-yu, kimgadir sim qoqib:

— Mening bir shogirdim yaxshi taqriz yozibdi, shuni chiqarishga yordam bering! — degancha telefon go'shagini joyiga qo'yaturib:

— Hozir "Pravda Vostoka" gazetasining adabiyot va san'at bo'limi mudiri Georgiy Dimovga borib uchrang, — deb uqtirdi.

Tahririyatga borib, Dimovga yo'liqdim. U matn bilan tanishib chiqqach, maqolani bo'lim muharriri Zokir Kurtyazirovga topshirdi. Natijada do'stimning sharofati, ustozning mehribonligi tufayli rus tilidagi ilk maqolam matbuotda e'lon qilindi.

E'tirof

1988-yilning kuz oylari edi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida adabiyotshunoslik masalalariga bag'ishlangan ilmiy konferensiya bo'ldi. Ikki ma'ruzachining mavzulari g'aznaviylar davri adabiyotining ayrim masalalariga doir ekan. Ular ma'ruzalarida Sulton Mahmudni "ilm-ma'rifat kushandasi", "olim va shoirlarni xor qilgan" qabilida qattiq tanqid qildilar. Anjuman oxirida — muhokamada kamina ham so'zga chiqib, aynan mana bunday izhori aqida qildim:

— Muhtaram ma'ruzachilar! Qur'onni forsiyda tafsir etgan, saroyida 400 dan ortiq olim, shoir, xattot, naqqosh, musavvirga ish berib, maosh bilan ta'minlagan, Nanda qo'rg'oni boshlig'ining sulh haqidagi nomasiga masnaviyda javob qaytargan sulton qanday qilib ma'naviyat va ma'rifat dushmani bo'ladi. Firdavsiyning "Sulton Mahmud hajviyasi" uyushtirilgan, uni Firdavsiy yozgan emas. "Tarixi Yaminiy", "Tarixi Boyhaqiy" va boshqa manbalarda Sulton Mahmud ilm-fan, badiiy ijod homiysi sifatida zikr etilgan-ku? Nega birinchi manbalarga e'tibor bermaysizlar?

Hech kim meni qo'llab-quvvatlamadi, fikrlarimni ham rad qilmadi. Anjuman tugagach, yo'lakda ketayotgan edim, birov:

— Hamidjon, hoy Hamidjon, — deb chaqirdi. Orqamga qayrilib qarasam, akademik Izzat Sulton. Chopqillab borib, salom berdim. — Hamma gaplaringiz to'g'ri. Lekin bunday fikrni kallada olib yurmay, yozib, matbuotda e'lon qilish kerak, kitobga kiritish lozim. Shu davr haqida kitob yozing, chiqarishga men yordam beraman, — dedi.

O'sha ruhiyat bilan uyga kelib, "Birinchi Sulton" degan badiiy-ilmiy lavha yozdim. Ertasiga "Sovet O'zbekistoni" gazetasiga olib bordim. Maqola bo'lim mudiri, atoqli shoir Jumaniyoz Jabborovga ma'qul tushib, e'lon qilindi. Shundan so'ng Xorazmiy, Beruniy, Forobiy, Rudakiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Farruxiy, Unsuriy va boshqa allomalar haqida ilmiy-badiiy ocherklar yozib, o'sha vaqtdagi "Yosh gvardiya" nashriyotiga topshirdim. Kitob 1990-yili "Olis-yaqin yulduzlar" nomi bilan 75 ming nusxada chop etildi. Bir nusxani do'stim O'ktam Usmonovga hadya qildim. Kunlardan bir kun O'ktam "bir kelib keting" deb sim qoqdi. Ertasiga Yozuvchilar uyushmasiga borib, O'ktamga uchrashsam, u meni uyushma raisi Sarvar Azimov huzuriga olib kirib:

— Bu kishi pedinstitut dotsenti, kursdoshim Hamidjon Homidiy. Yaqinda Sharqning buyuk allomalari haqida "Olis-yaqin yulduzlar" degan ilmiy-badiiy ocherklar to'plami chiqdi. Sadriddin Ayniyning "Yetim" romanini tarjima qilgan. Kecha yozuvchi Tohir Malik kelib bu kishini uyushma a'zoligiga qabul qilishni taklif etdi, — dedi qo'lidagi kitobni ko'rsatib.

Rais kitobni olib, varaqlab ko'rdi-da:

— Yaxshi, sizni yangi kitob bilan tabriklayman, hujjatlarini tayyorlayveringlar, — dedi.

Natijada men Tohir Malik, O'ktam Usmonov



hamda Rahmatulla Inog'om tavsiyasi bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilindim. O'shandan beri do'stlarimning ishonchini oqlash payida yuraman.

Ana shunday! O'ta zakiy, shiddatkor adib va jamoat arbobi O'ktam Usmonov do'stlari uchun fidoyi inson edi. Bundaylar yorug' olamni tark etsalar ham ezgu ishlari, hayotiy ibrati bilan qalblarda yashayveradi.

Vazirlar Mahkamasining shu yil 18-apreldagi farmoyishi bilan O'ktam Usmonovning 85 yillik yubileyi keng nishonlanayotganidan uning yaqinlari qatori biz, do'stlarning ham boshimiz ko'kka yetdi. Ayniqsa, "Saylanma" asarlari, "O'ktam Usmonov zamondoshlari xotirasida" kitoblari taqdimoti, ta'lim muassasalarida bo'ladigan ijodiy uchrashuvlar, ommaviy axborot vositalarida yozuvchi hayoti va ijodiga doir chiqishlar ko'zda tutilgani uning e'tibor-u e'tirofga arzirli barakali ijod sohibi ekanidan dalolatdir.

Hamidjon HOMIDIY,
filologiya fanlari doktori, professor

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalari tahririyati" DUK
MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
43312 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05